

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI  
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O‘zbek filologiyasi fakulteti

dekani \_\_\_\_\_ dots. I.Xudoynazarov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015- yil

5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi

IV bosqich 011-11-guruh talabasi

**IMOMOVA MOHINURNING**

**“O‘ROZ HAYDAR SHE’RIYATINING G‘OYAVIY-BADIIY  
XUSUSIYATLARI”**

**mavzusida yozgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015- yil

***“Himoyaga tavsiya etildi”***

Adabiyotshunoslik kafedrası

mudiri \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015- yil

QARSHI–2015

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. O‘zbek she’riyati taraqqiyotida O‘roz Haydar ijodining o‘rni.</b>	
1.1. Yangi adabiy avlod va badiiy tafakkur. ....	5
1.2. O‘roz Haydar she’riyatida lirik qahramon va zamon ruhi.....	20
<b>II BOB. O‘roz Haydar lirikasida yangi badiiy izlanishlar.</b>	
2.1. O‘roz Haydar sonetlarining badiiy jihatlari.....	33
2.2. O‘roz Haydar she’riyatida badiiy-tasviriy vositalar.....	50
<b>Xulosalar.....</b>	<b>54</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>55</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Zamonaviy o‘zbek adabiyoti, ayniqsa, she’riyatining xilma xil yo‘nalishda rivojlanayotganligi uning yorqin istiqbolidan dalolatdir. Bugungi kunda avlodlarimiz kamoloti yo‘lida xizmat qiladigan yangi davr o‘zbek adabiyotimizning muqaddas namunalarini chuqur ilmiy talqin etish, omma ongiga singdirishning naqadar muhimligi haqiqatdir. Prezidentimiz I. Karimov milly adabiyotimizni rivojlantirish, adabiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalar haqida shunday degan edi: “ Ziyolilarning ilg‘or qismi bo‘lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o‘rni va ta’siri beqiyosdir”<sup>1</sup>. Shu ma’noda, jamiyat hayotida o‘zining alohida mavqeiga ega shoir O‘roz Haydar ijodi har tomondan chuqur o‘rganishga loyiq. O‘roz Haydar ijodi yoshlarni istiqloq g‘oyalari ruhida tarbiyalash, insonlar ongi-tafakkurini o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Bu mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.** O‘roz Haydar she’riyatining o‘ziga xos tabiatini ochib berish, unda tasvirlangan tabiat va inson tasviri masalalariga e’tibor berish; O‘roz Haydarning hayotni badiiy-estetik idrok va ifoda etish prinsiplari asosida she’riy tafakkur tabiatini, mahorati qirralarini o‘rganish, ilmiy-nazariy umumlashtirishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** bajariladi: shoirning estetik ideali asosida realistik tasvir prinsiplarini belgilash; lirik qahramonning fikrlash tabiatini ochib berish; psixologik ifodaning o‘ziga xos unsurlarini ko‘rsatish; shoirning badiiy-estetik izlanishlari asosida ijodiy individualligi masalasini yoritish; poetik timsollarning xalqchilligini tahlil etish, O‘roz Haydar inson ruhining musavviri darajasidagi shoir ekanligini ko‘rsatish.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. “Sharq yulduzi” jurnali, 2009, 3-son, 4-bet.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** O‘roz Haydar ijodi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning she‘rlari o‘zining falsafiyligi, serma‘noliligi, jozibadorligi bilan o‘quvchilar qalbini o‘ziga rom etmoqda. O‘roz Haydar ijodi haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, uning she‘rlari chet tillarga ham tarjima qilingan. Bizning ishimizda shoir she‘riyatini g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinganligi ishning ilmiy yangiligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi va usullari.** Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasiga oid qarashlari, adabiyotshunos olimlardan O.Sharafiddinov, I. G‘afurov, N.Rahimjonov, I.To‘lakov, Q. Yo‘ldoshev va boshqalarning ilmiy-nazariy fikrlari tashkil etadi.

**Mavzuning o‘rganilish darajasi.** She‘riyatimizning keyingi yillar taraqqiyoti tadqiqotlarning doimiy diqqat markazida. Shu jumladan, O‘roz Haydar ijodi ham olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Lekin shoir ijodini o‘rganish talab darajasida deb bo‘lmaydi. Zero, O‘roz Haydar ijodi yirik tadqiqotlarga arziydi. Adabiyotshunos olimlardan Nazar Eshonqul, prof. D.To‘rayev f.f.n. D.Rajab, o‘z tadqiqotlarida shoir ijodiga yuksak baho beradi. Ko‘rinadiki, O‘roz Haydar ijodiga qiziqish kun sayin kuchaymoqda. Biz ham shoir ijodi haqida fikr yuritmoqchimiz.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** O‘roz Haydarning “Aksioma”, “Oq soya”, “Vaqt iztirobi”, “Musiqor”, “Ruhafzo”, “Kechikkan fasl”, “Falak favvorasi” kabi she‘riy to‘plamlari.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** O‘roz Haydarning ijodini xolisona va izchil tadqiq etish Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi fani rivojiga hissa qo‘shishi, hatto muhim nazariy umumlashmalarga asos bo‘lishi, oliy o‘quv yurtlarida yangi o‘zbek adabiyoti tarixi fanidan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.** Ish Kirish, ikki asosiy bob, to‘rt fasl, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **I BOB. O‘zbek she‘riyati taraqqiyotida O‘roz Haydar ijodining o‘rni.**

### **1.1. Yangi adabiy avlod va badiiy tafakkur.**

XX asrning ikkinchi yarmida she‘riyatimizga yangi avlod kirib keldi. Bular – Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Azim Suyun, Halima Xudoyberdiyeva, Abdulla Sher, Xurshid Davron, Tohir Qahhor, Matnazar Abdulhakim, Sirojiddin Sayyid, Ismoil To‘lak, Qutlibeka Rahimboyeva, Asqar Qosimov, O‘roz Haydar singari iste‘dodlar edi. Ularning badiiy-estetik izlanishlarisiz XX asrning so‘nggi choragi va XXI asr boshlari badiiy madaniyatimizni tasavvur qilish qiyin. “Har bir avlod vakillari o‘ziga xos ovozi, uslubi, manerasi, idrok etish xususiyatlari bilan o‘z badiiy dunyosini yaratadi. Bu xususiyat mazkur avlodning qiyofasini ham belgilab beradi. Mazkur davr she‘riyati taraqqiyotida tutgan o‘rni va rolini, badiiy-estetik tafakkur rivojiga qo‘shgan ulushini ko‘rsatish poeziyamizning aynan shu bosqichdagi taraqqiyot tendensiyalari haqida fikr yuritish imkonini yaratadi”<sup>2</sup>.

Ana shular qatorida O‘roz Haydar badiiy harorati, tarovati va nafosati o‘zgacha. Xususan, ruhiy sezimi o‘tkir, tuyg‘ulari nafis va tarang, tafakkuri cho‘ng va terandir.

O‘roz Haydar 1957-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Navro‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. 1974-yilda tumandagi Nazar Shukur nomli maktabni bitirib, so‘ng O‘zbekiston Milliy universitetida tahsil oldi. Uning o‘ndan ortiq kitoblari chop etilgan. She‘rlari ingliz, rus, turk, tojik tillariga tarjima qilingan. O‘roz Haydar 1957- yil 8- aprelda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Navro‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. ToshDUning geografiya fakultetini tugatgan (1980). «Quyosh o‘tovi» (1984), «Kuylovchi toshlar» (1990), «Musiqor», «Qizaloq va qizg‘aldoq» (1993), «Hazilkash qish» (1997), «Aksioma» (2003), «Oq soya» (2004), «Yaylovdagi oq o‘tov» (2005), «Ruhafzo» (2006) kabi she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Nasriy asarlari — «Xatarli xilvatgoh» (1996), «Yovuzlik sirtmog‘i» (1998),

---

<sup>2</sup> Rahimjonov N. Davr va o‘zbek lirikasi. Toshkent, 1979, 101-bet.

«En» (2004), «Talvasa» (2004). «Kechikmagan tazarru» (2003) dramasi ham bor.

Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyati IIB nashri – "Posbon" gazetasi bosh muharriri vazifasida faoliyat yuritmoqda. "Talvasa" detektiv romani asosida ko'p qismli videofilm suratga olingan. "Kechikmagan tazarru" dramasi viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan. "White shadow" (ingliz), "Beyaz go'lge" turk tilida kitoblari chop etilgan. Bir turkum she'rlari rus, assam, tojik, qozoq tillariga tarjima qilingan. Hindistonda nashrdan chiqqan "O'zbek she'riyati antologiyasi"da assam tilida va "XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi"da bir turkum she'rlari o'rin olgan.

Shoirning o'zi: "Ilk she'rim rahmatli akam Nazar Shukurning tashabbusi bilan "Yoshlik" almanaxida bosilgan. O'shanda 22 yoshda edim. Enam rahmatli xalq og'zaki ijodini yaxshi bilardi. Akamiz ikkimizga termalar aytib berardi. Yozning sutday oqshomlarida ikkalamizdan "Jetigan julduz jettiga borsa savob bo'larmish, nafas chiqarmay aytinglar" derdi. Aka-uka bo'g'ilib qolguncha bu kalimani ayta-ayta uxlab qolardik. Shoirlik nuqsi ikkalamizga ham onamdan yuqqan.

Ilk to'plamim "Navqiron davra" jamoa to'plamida "Quyosh o'tovi" nomi bilan chiqqan"<sup>3</sup>, deb eslaydi. Shundan buyon O'roz Haydar she'r yozish bilan band, yozganda ham dilni rom etuvchi, tafakkurni teranlashtiruvchi she'rlar yozib, adabiyotimizni boyitib kelmoqda.

She'rni "ko'ngil ermagi" yoki "chiroyli aytilgan yolg'on" deydiganlar, shu qarashga sodiq qolgan kishilar adashadilar. Aksincha, bu yorug' olamda haqiqat sari eltuvchi yagona yo'l she'r orqali o'tadi.

Faylasuf shoir Rauf Parfinng "Koinot sirlarga to'la, ammo Inson Koinoti undan-da sirlidir, yaratganning Insonga bergan mo'jizallaridan biri – sirli tuhfasini she'riyat bo'lsa ajab emas. Singan so'ngaklarni tuzatuvchisini sinqchi, sinchi, fol ochuvchini folbin va hokazo deydilar, lekin inson ruhidan,

---

<sup>3</sup> [www.http// Google.O'zbek adabiyoti.uz](http://www.google.uz)

siridan so‘zlaguvchini kim deb atasa bo‘larkin? Balki sirdon, balki sohir, balki sirchidir”, degan shoirlarga berilgan bahosi haqiqatdir.

Bizga ma’lumki, bilishning uchta usuli bor: analitik hissiy va payg‘ambarlarga xos usul – vahiy. Poeziya adabiyotning boshqa janrlaridan uchala usuldan baravariga foydalanishi bilan farqlanadi, chunki tilda uchala usul bor. Gohida she’r yozadigan odam bitta so‘z yordamida boshqa hech kim borolmagan, hatto o‘zining xayoliga kelagan joylarni zabt etadi. Odam she’rni shuning uchun ham yozadiki, she’r to‘qish ongning, mushohadaning, dunyoni tushunishning azim tezlatkichidir.

Bugungi kunda aloqa vositalari takomillashgani bois masofa degan tushuncha qariyb o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Pirovardida milliy she’riyatlar umumjahon she’riyati maqomiga ancha yaqinlashib qoldi. Binobarin, bugunning peshqadam shoiri asarlarini o‘quvchi muayyan tayyorgaliksiz o‘qisa tagqatlamlariga yashiringan ma’nilarni anglamay qoladi. Bu ta’rif o‘zbek she’riyatining 80-yillar avlodiga mansub O‘roz Haydar ijodiga ham tegishlidir.

O‘roz Haydar Qashqadaryo adabiy muhitining yetuk vakillaridan, u shu zaminda yashab ijod qilmoqda. Shoirning barcha she’riy to‘plamlari – “Aksioma”, “Oq soya”, “Vaqt iztirobi”, ”Musiqor”, ”Ruhafzo”, ”Kechikkan fasl” kabilar adabiyotni sevuvchilarga tanish. “Oq soya” she’riy to‘plami ingliz tiliga tarjima qilingan.

O‘roz Haydar dastlab an’anaviy usulda ijod qildi. Keyingi yillarda uslubini keskin o‘zgartirdi. Ispan she’riyatini, jumladan, Lorca nazmini, fransuz eksistensialchi yozuvchilar ijodini, nemis faylasufi F.Nusshening durdona asarlarini astoydil o‘rganib chiqdi. Shuning samarasi sifatida ijodi yuqori pog‘onaga ko‘tarilgani ayrim she’rlaridan ma’lum. U obrazlarni ketma-ket harakatlantirish usulini o‘zicha kashf etdi. Xuddi shu ma’noda Nazar Eshonqulning quyidagi fikr-mulohazalariga qo‘shilmoq mumkin: “O‘roz Haydar savqiyu g‘alayonlarining shovur va saslari, evrilish va inkorlari o‘ziga xos ohang, obraz qiyofasida yaxlitlashadi. Shoirning shunday quyma

tashbehlari borki, bular bugungi she'riyatimizning o'ziga xos yutug'i sanaladi"<sup>4</sup>.

Ushbu avlod izlanishlari, xususan, O'roz Haydar ijodi o'zining ijtimoiy-estetik ahamiyati bilan, olamni va odamni badiiy-falsafiy tushunishi hamda tushuntirishi bilan ajralib turadi. Tabiat, jamiyat hodisalarini, ruhiy olam sir-sinoatlarini idrok va ifoda qilishdagi obrazlilik, hayotiy detallarning yorqinligi, poetik obrazlarning ma'nodorligi, sermiqyoslligi o'quvchilar safini kengaytirmoqda. Shoirning badiiy-estetik izlanishlari adabiyotshunos olimlar, mutaxassislar, muxlislarning doimiy diqqat e'tiborida.

O'roz Haydar she'rlari mutolaasi chog'ida shu narsa oydinlashadiki, har bitta she'r umumiy holda kartinaning bitta bo'lagi. Sher'lar oldinma ketin o'qib chiqilsa xuddi she'riy roman taassurotini beradi. Bu holat ayniqsa, shoirning "Kutish masofasi" dostonida yaqqol ko'rinadi.

Tabiiyki, bugungi she'rxonni, ayniqsa xos doiraga mansub she'r ixlosmandini uncha-muncha tashbehlar bilan hayratga solib bo'lmaydi. Dunyo zamonaviy nazmidan xabardor she'rxon uncha-muncha kitobni o'qimaydi. O'roz Haydar she'riyatining jozibasi shundaki, so'zda jilolangan rang-tus o'quvchini tobora ichkariga tortib ketadi, sira qo'yib yubormaydi. Shoir yozadiki:

O'ngda tush ko'rmoq – oftobda to'nish,  
Shishadek to'kilar qadimiy sukun.  
Bugun shunday kundir–g'arib va bo'm-bo'sh,  
Uzr deyishga or qiladigan kun<sup>5</sup>.

O'ngda ko'rilgan tush: qadimiy sukunning shishadek sassiz to'kilishi; kunning bo'm-bo'shligi, she'r ma'nosi o'quvchini sergak torttiradi va shoir hamda she'rxon o'rtasidagi masofa tobora qisqaraveradi. "Aksioma" sherida

---

<sup>4</sup> O'roz Haydar. Ruhafzo. Toshkent, Zarqalam nashriyoti, 2006. 4-bet.

<sup>5</sup> O'roz Haydar. Falak favvorasi. Sonetlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik Kompaniyasi bosh tahririyati . Toshkent, 2012.



esa o‘sha holat takrorlanadi, lirik qahramonning go‘zallikka intilish ehtiyoji teranlik kasb etadi:

Insho yozmoqdaman, ammo mavzu yo‘q,  
Siyohdonda siyoh bormoqda qurib,  
Tasavvur ko‘zida bir oltin baliq,  
Iltijo qiladi unsiz qichqirib.

Tamaki ezganday ezib fikrimning  
Kepagin elakda elayman raso.  
Men dod solganimda mazmunsizlikdan  
So‘qirning qo‘lidan uchadi aso.

Shoirning aksar she‘rlarida dastlab lirik qahramonning ko‘nglida nima borligi, u nima xohlashi mavhum tuyuladi. So‘ng astoydil mutolaa barobarida maqsad oydinlashadi. Izlangan yo‘l – Shaxsning mustaqilligi yo‘li. Shaxs inkor vositasida qaramlik zanjiridan qo‘llarini bo‘shatmoqchi. Uning nazdida, o‘ziga tortadigan narsalardan olisroq yurgan ma‘qul:

Har qanday ohangda afsun bor, rabbiy,  
Ilon afsunidan dahshatli afsun.  
Fikrni bo‘g‘ajak har qandayin kuy,  
Beo‘t kuydirajak shuur oynasin.

Yaqin o‘tmish shoirlari she‘riy kitoblarini varaqlab ko‘rsangiz ular ko‘proq ijtimoiy mavzularda qalam surganiga guvoh bo‘lasiz. Bu ham tabiiy hol edi. Negaki, o‘sha davrlarda siyosat bilan she‘riyat majburan birlashtirilgan. Ayni zamonda esa she‘riyat mafkura changalidan butkul qutuldi.

Shoirning dostoni shunday boshlanadi:

Odam o‘z bitini o‘ldirayotganda  
Farog‘at tuyadi qonning isidan.  
Uch yillik yaraga ko‘nikkan bemor  
Yarasin siqmoqdan yayragan kabi.

Nimani gapiray,  
Nimani eslay,  
Uchayotgan qo‘lu oyoqlarnimi?  
Izohga hojat yo‘q.

Ana shu boshlama o‘quvchini ”Kutish masofasi” dostoni ichkarisiga yetaklab ketadi. Doston mutolaasi bizda kino ko‘rgandek tasavvur qoldiradi. Aslida she‘r qadrini biladigan o‘quvchi uchun sharhu taassurotlar ortiqcha. Teran tushunsa, shoirni maqtamasangiz ham she‘rlarini o‘qiyveradi.

O‘roz Haydar katta shoir, qalbi va qamrovi keng ijodkor. Shoirning shakllanishi va kamolotida bolalik davri, bolalik muhiti muhim rol o‘ynaydi. Darhaqiqat, O‘roz Haydar she‘riyatidagi kenglik u tug‘ilib o‘sgan bepoyon Chiroqchi dala-dashlarining ta‘siri va taassurotlari hosiladek tuyuladi.

Yuraginga sepadi bayot  
Moviyligu kengliklar nurday,—  
deya sezib-sezmay e‘tirof etadi shoir.

Borliq tabiatga, jamiyatga va hayotga yuragini ochib yuzlangan shoir turli narsa-hodisalarda, holat-manzaralarda, o‘zgarishu evrilishlarda chuqur falsafiy ma‘no-mazmun ko‘radi, ularni kongil hukmidan o‘tkazib teran badiiy xulosalar – she‘rlar shaklida izhor etadi.

Ko‘ngil kosasidan toshdi ummonlar  
”Ummonlar” she‘rida yana o‘sha kenglik, teranlik.  
Kengliklardan tug‘ilgan she‘rlar ko‘ngillarni tortqilab, biqiq doiralardan ochiqlikka, ruhiy kengliklarga olib chiqadi.

Chorlab o‘tgum sirli orolday  
Men zaminning kichik nuqtasi.

Shoir she‘rlari qaysi zamon va makonda bo‘lmasin, insoniyatni hamisha beg‘ubor va bepoyon ma‘naviy ma‘volar sari undaydi. Ruhiy ma‘naviy boylik-ma‘danlarga kon sirli orol yanglig‘ eziguliklarga chorlaydi.

Haqiqiy she‘r qaysi tilda, qaysi zamonda va makonda yozilsa ham har doim insoniyatni beg‘ubor va bepoyon ruhiy kengliklar sari chorlaydi. Ruhiy

ma'naviy boyliklarga kon olam yanglig' ezguliklarga undaydi. O'roz Haydar she'riyati an shunday xususiyatga ega.

Shoirning shu kungacha "Aksioma", "Oq soya", "Vaqt iztirobi", "Musiqor", "Ruhafzo" kabi kitoblari nashrdan chiqqan. Bu kitoblarga kiritilgan she'rlar badiiy baquvvatligi, inson ruhiy holatini aniq tasvirlaganligi, dilga yaqinligi, qalblarni ezgu hislar ila oshno tutintirishi bilan o'ziga jalb etadi.

Haqiqiy she'r tushunilmaydi, balki his qilinadi. Xususan, tabiat mavzuining badiiy talqin ma'nolari orqali poetik obrazlar zimmasiga yuklanayotgan mazmun teranligini ko'zdan kechirish xarakterlidir. G'afur G'ulom "Kuz keldi" she'rida yozadi:

Doshlarda qaynagan shinnining hidi  
Dimog'ni shod etar, ruhni salomat;  
Sharbat-sharoblardan sipqorgan kishi  
To'qson yil yashaydi ko'rmasdan ofat.  
Ishkomlar yoqitu haqiq xazina,  
Qirq besh nom uzumlar osilgan atan.  
O'lma, ey, qo'li qand, jafokash bog'bon,  
Yashay ber, bog'larga cho'lg'angan Vatan<sup>6</sup>.

Endi, Oybekning ushbu satrlariga razm solsak. Ulardagi ramziy obrazlarning nozik ma'no qirralarini ilg'ashimiz mumkin:

Qamrovchi to'lqin bor, qamrovchi girdob...  
Azamat tog'lar ham, kuylagan barg ham –  
Uning dami sari aylaydi shitob,  
Har nimada mavj bor – mavj tinmas bir dam<sup>7</sup>

Yoki,

Kechasi... osmonga sekin boqaman,  
Kiprigim ustida cheksizlik o'ynar.

---

<sup>6</sup> G'afur G'ulom. Viqor. Lirik. – T., 1980, 62-bet.

<sup>7</sup> Oybek. Ko'ngil kuylari. She'rlar. – T.: Badiiy adabiyot, 1966. – B. 28.

Ko'ksimda ovunchoq ertaklarim bor.  
Hayot kemasida qayga oqaman?...  
Ko'klardan jimgina oltin nur yog'ar,  
Yaproqlar hayotdan parcha kuylaydi.  
Irmoqlar hayotdan ilhom so'ylaydi...  
Borliqqa otilgan abadiy yoyman.

Maqsud Shayxzodaning "Bog'bon" she'ridagi umumlashma badiiy obraz – bog'bon timsolida hayotning azaliy va abadiyligi, umrlarning esa o'tkinchiligi qoshida ojiz qolgan bir kimsa emas, aksincha o'z tirikligi izlari bilan hayotdagi yorug'lik umrini uzaytirayotgan nuroniy donishmand siymosi ko'z o'ngimizda gavdalanadi:

Peshonada qadim ajinlar,  
Kuzda ayon tuproqning siri.  
Eshitmoqni bilgandan beri –  
Ariqlarning nag'masin tinglar...<sup>8</sup>

Abdulla Oripov "O'rmon" sherida:

Yalang'och, sarg'aygan, kimsasis o'rmon,  
Boshingda charx urar kuzgi dovullar.  
Sening yaproqlaring esa bearmon  
Bahor qo'shig'ini aytib shovullar.  
Archazor irtidan sayrar bo'g'iq qush,  
Ufqlar so'ngida qora bir ro'yo.  
Uzoq-uzoqlarda g'amgin va behush  
Cho'zilib yotibdi ulkan bir daryo<sup>9</sup>

Endi, O'roz Haydar she'rlaridagi tabiat obrazlariga diqqat qarataylik:

Qum yonmoqda, qirlar to'lg'onar,  
Chinqiradi sariq saraton.  
Kun taftida shamol cho'glanar,

---

<sup>8</sup> Шайхзода М. Шеърлар. – Т.: Ўздавнашр, 1964. – Б. 31.

<sup>9</sup> А.Орипов. Yillar armoni. Т.: 193-bet.

Haroratdan eriydi darmon.

Qavjiraydi har qanday giyoh,  
Oromi yo‘q qumday sovrilib;  
Bo‘m-bo‘shliqning dog‘ida sahro  
O‘z dardiga yotar qovrilib.

(“Sahro” she’ri)

Agar e’tibor bersak, G‘afur G‘ulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Asqad Muxtor she’rlaridagi tabiat o‘zining ramzli ma’no jilvalari bilan timsol darajasida ko‘nglimizga singib kiradi. Aqli-shuurimizni band etadi. O‘roz Haydarning “Sahro” nomli she’rida tabiat manzarasi nihoyatda hassos chizilgan. Saratonda sahroning issig‘i, taftini aniq his etgandek bo‘lasiz. O‘zingizni xuddi sahroning qoq markazidagidek his etasiz. Bag‘rida yashillikdan asar ham yo‘q “sariq saraton” haroratga chiday olmay “chinqiradi”. Xayolingizda qumlar yonayotgandek, qirlar to‘lg‘onayotgandek tuyuladi. She’r misralari ham xuddi harakatlanayotgandek go‘yo! “Oromi yo‘q qumday sovrilib” har qanday giyoh qovjiraydi, sahro “o‘z dardiga yotar qovrilib”. She’r misralarida cheksizlikning bir bo‘lagi saraton bag‘ridagi sahro holatini qalbdan tuyamiz, sahro haroratidan tanda darmonimiz qurigandek bo‘ladi. Shoir mohir rassom kabi manzaraning suratini chizadi, uning badiiy tasvir mahoratiga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q.

Inson bolasi hayotda yolg‘iz yashay olmaydi. Lekin hayot beshafqat, o‘lim haq. U hech kimdan ruxsat so‘rab tashrif buyurmaydi, u hamisha nogahondir. Ajal har kimga har xil qiyofada ro‘baro‘ bo‘ladi. O‘roz Haydar akasi iste’dodli shoir Nazar Shukur xotirasiga bag‘ishlab yozgan “Akamni yo‘qlab” nomli she’rida jigarbandini sog‘inish hissi, armon, iztirob, alamlar hissi bo‘rtib turadi. Dunyoning bir kamligi shoir qalbini cheksiz iztirobga soladi:

Meni ulg‘aytirdi sening yo‘qliging,  
O‘, olam qayg‘usin qaydan bilibman.

Qayga bosh urayin, kimni chorlayin,  
Ruhsiz yo‘lovchidek hayron turibman.

Beg‘ubor bolalik, ota uy, onaning issiq bag‘ri, xonadon xotirjamligi, birdamligidan ko‘ngli to‘q, bag‘ri butun shoir akasining nogahon va bevaqt o‘limidan keyin jigar kuyugi nima ekanligini yurakdan his qiladi, ayriliqning alamli dog‘ini anglaydi, akasining o‘limi uni erta ulg‘aytiradi. Shoir boshini qayga urishni, kimni chorlashni bilolmay qoldi, o‘zini “ruhsiz yo‘lovchi”ga o‘xshatadi. U hayot davomiyligini yaxshi biladi, lekin dunyoning hech qachon tugamaydigan tashvishlari tosh tishlatib qo‘yishidan ojiz banda kabi qo‘rqib qoladi:

Jilg‘a-ku o‘zanin topgay erta-kech,  
Bahoriy inqilob qilgay tantana.  
Hayot chimdim baxtini qilganida pesh,  
Ko‘zlarim tuproqqa to‘lmasmi yana?!

Ha, dunyo qanchalik qadimiy bo‘lsa, hasratlar, alamlar, iztiroblar ham shunchalik qadimiy. Bunga insoniyat tarixi guvohlik beradi. Ba‘zan oshga og‘zing yetganida boshing toshga tegadi. Yillab kutganingga endi yetishay deganingda o‘lim oraga tushadi. Bir ko‘rpada katta bo‘lgan jigarlaring bilan gohida yo‘llaring ayro tushadi. Ba‘zan mehr ko‘rsatib mehrsizlik ko‘rasan, yaxshilik evaziga yomonlik qaytadi. Hammasiga chidaysan, boshqa ilojiyam yo‘q. Insonning boshi toshdan qattiq. Xalqimizda ota-ona o‘lmoq meros, lekin jigar o‘limini ko‘rsatmasin, degan gap bor. Bu gapning ma‘nosini jigari bevaqt o‘lganlar teran his qiladilar. Hamma narsaning yechimini topish mumkin, lekin bevaqt o‘limning alami achchiq, u qalblarni beaded alamga oshno etadi.

Sendan ne merosdir: she‘r va tabassum,  
Kulgungday pokligu muqaddas alam.  
Majruh yuraginga qasos baxsh etur  
Tabassuming bo‘lib yaralgan olam.

Shoirning ma'yus qalbi qatlaridan sizib chiqqan misralarda qaytmas bo'lib ketgan jigar dardi bor. Hazrat Navoiy: «Ko'ngilda g'am yo'qligi o'zi g'amdur, Alam yo'qligi asru alamdir» deganlarida barcha ijodkorlarning ko'ngillaridagini o'rta tashlagan edilar. Mehribon birodarisiz shoirning majruh bo'lib qolgan yuragiga akasining tabassumidek yaralgan olamning pokligi, borligi tasalli beradi. Inson xotiralarda yashaydi, ayniqsa bolalik xotiralari betakror va beg'ubor bo'ladi.

Asqad Muxtor "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining maxsus muxbiri bilan suhbatida she'riy madaniyatning hayotiy kuchi-qudrati haqida mulohaza yuritadi. Ayniqsa, shoir odam, bolalik zavqini, bolalik samimiyati va hayratlanishini yo'qotmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi: «Bolalik xotiralari – shunday bir bitmas-tuganmas, so'nmas ijod bulog'iki, usiz she'riyat ibtidosini, tiniqligini yo'qotgan bo'lurdi. Yosh o'tgan sayin keksaygan paytda his etilgan anglashsiz, og'riqli sog'inch tuyg'ulari – bu hissiy idrok musaffoligini yo'qotish sabablaridan biridir. Yillar o'tgan sayin yuz beruvchi qalbning toliqishi shoirdagi hayratlanish layoqatini nobud qiladi, ijod qilish iqtidorini so'ndiradi. Bolalik tuyg'ulari keksalikni inkor etmaydi. Ishonchim komilki, shoir bolalik hayratlarini, hayrat layoqatini saqlab qolgan taqdirdagina hayotning mukammalligini, ezgulikning qarimasligini, go'zallikning boqiyiligini his qila oladi. Ularni salohiyati miqyosida inkishof eta biladi»<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, inson xotiralarda yashaydi. Shoir jisman keksaysa ham, ma'nan zinhor keksayish bilmaydi. Ijodidan hayotdek navqironlik tarovati yog'ilib turadi. Ushbu omil yoshlikka xos betakror tuyg'ular tiniqligi, his-kechinmalarning samimiyligi, odamlarga munosabatdagi qalb bokiraligi bilan belgilanadi.

Shoir ijodi yil sayin yuksala bordi. Uning ijodida "Armon" nomli she'r bor. Bu she'r umr haqida. She'r bizni inson umri haqida mushohadalarga

---

<sup>10</sup> Muxtor A. Yosh do'stlarimga. Adabiy suhbatlar. – T.: Yosh gvardiya, 1980. – B. 106-107.

chorlaydi. Azaldan shoirlarni dunyo nima, umr ma'nosi nima? kabi qadimiy savollar qiziqtirgan. O'roz Haydar ham bu kabi savollardan chetda emas. Mana quloq soling:

Keksayish ham aslida baxtdir,  
Ul yoshlikdan tug'ilgan armon.  
Umr – cho'lda adashib oxir  
Karvoniga duch kelgan sarbon.

Umr falsafasi turli shoirlarda ayro talqin qilinadi. Masalan, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ijodida umr falsafasi teran aks etadi:

Umr qisqa edi,  
Qisqartirdik yana,  
Ozgina baxtni ham bo'lib tashladik.  
Kulfat oqibatda qildi tantana,  
Shundagina ko'zni yoshladik.  
Jahldor tabiat endi yuz o'girdi,  
Boqmadi, chopsak ham yig'lab ortidan.  
Tirik ot o'rniga yog'och otni berdi,  
Uyni esa berdi yerning ostidan.

Insonga bir marta beriladigan umr deb atalgan fursatni haqiqiy insonlarga xos yashay olish zo'r baxt. Lekin odamlar umrni o'tar-ketar deb behuda ishlarga, g'iybat, kayf-safo, bekorchi ishlarga sarf qiladilar, ya'ni ko'kka sovuradilar. Qachonki, umrning qadriga yetganlarida, "ko'zni yoshlagan"larida tabiat ulardan yuz o'girgan bo'ladi!

Ustoz O.Sharafiddinovning adabiyotdagi falsafiylik asosini tashkil etuvchi inson hayotining badiiy talqini haqidagi quyidagi fikrlari e'tiborlidir: "Inson hayotining ma'nosi nima? O'lim va hayot qanday aloqada? Inson tabiatini o'zgartirib bo'ladimi? Uning yaxshilikka moyilligi o'sadigan, rivojlanadigan xislatmi? Bu va bunga o'xshaydigan savollar o'tmishda ham, hozir ham har bir insonni o'ylantiradigan savollardir. Afsuski, hayotda



hamma vaqt ham ularga javob topib bo'lmaydi. O'roz Haydarning lirik qahramoni bu savollarga tugal va mukammal javob berishni maqsad qilib qo'ymasa-da, ular to'g'risida muttasil o'ylaydi".<sup>11</sup>

Lirik qahramon yuksak va shaffof orzu-umidlari bilan insoniyatning nechog'lik buyuk imkoniyatlarga ega ekanligini ulug'laydi. Inson yuragidagi osmonlar –u, ummonlar bu –ko'z ilg'amas, qo'l bilan ushlab ko'rilmaydigan, ushalmaydigan orzu-armonlar emas. Faqat o'z kuch-qudratiga ishonchini so'ndirmasa bas. Xiyonatu qabohatni, razolatni bartaraf etish, adolatu ezgu saodatni saqlab qolishishini, umr kechirishni ta'minlash ham aslida, inson izmida.

Yovuzligu adolat ham inson ko'ngliga uya qurgan. Parrandayu darrandalar, hayvonotu nabotot inson ko'nglida rahmon bilan fe'lidagi shaytonga xizmat qilmaydi, deb ayta oladi?! Yolg'onning yuziga qora tortib, haqni haq toptirish ham ko'ngil izmidadir. Yer yuzida hayot paydo bo'lgandan beri hali hech bir zot yolg'on bilan nohaqlikni ustidan tuproq torta olmagan, yo'q qilolmagan. Inson nasli bor ekan, hayot ekan, odamlar ko'nglida pinhona yashab qolaveradi, deganidir.

Osmonu zamin, jannatu do'zax, o'limu hayot kimga mute, kimning izmida? Tug'ilish bo'lsa-yu, o'lim bo'lmasa! Hech kim va hech arsa zavol topmasa, mangu yashayversa. Ko'ngil kimlar bilandir do'stlashsa, sirlashsa, ixtiyoridan tashqaridagi voqeliklarga mute bo'lib qolaveradimi? Ko'ngil erkinining chegarasi bormi? Inson o'limning quli ekan, hayotga qaram. Mute ekan, ruhoniy hurlikning cheki-chegarasi qayerda tugaydi?

O'roz Haydarning lirik qahramonining iroda imkoniyatlari, ko'nglidan kechgan sadolar shu taxlit fikrlar uyg'otadi. Lirik qahramonning insonsevarlik tuyg'ularini voqif etadi.

O'roz Haydarning lirik qahramoni sodda, to'pori va dangal, jo'mardlarcha gapirishni yoqtiradi. Aynan shu badiiy ifoda tarzidagi soddalik va samimiylik yolg'iz O'roz Haydarning tafakkur tarzi uchun xos bo'lgan xususiyatdir.

---

<sup>11</sup> Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. Адабий портретлар. – Т., 1976. – Б. 173.

Qashqadaryoning munis dilbandi, asl farzandi O‘roz Haydar, hech shubhasiz, so‘z ahlining yuksak maqomiga ko‘tarila olgan ijodkor. Shoir dunyodagi barcha shoirlar singari insonni qiziqtirgan, inson qalbini to‘lqinlantirgan azaliy mavzularda qalam tebratdi, hech bir zamonda eskirmaydigan, qadri tushmaydigan she‘rlar yozdi. Uning lirikasida Vatanni, uning betakror tabiatini, tanti xalqimiz o‘tmish madaniyati va tarixini ulug‘lash, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, ma‘naviy-axloqiy muammolar, insoniy dardlar, armonlar, ishq-muhabbat kabi mavzular keng o‘rin olgan.

Shoirlik har kimga ham nasib etavermaydi, yoki hamma ham shoir bo‘lavermaydi. Asl shoirlik maqomiga shoirman deb yurgan shoirlarning barchasi ham muyassar bo‘lavermaydi. O‘roz Haydar ana shunday yuksak maqomga ega bo‘lgan shoirdir. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning: “Shoirlik – bir umr to‘kilib borish demakdir. So‘z yo‘li – butun umr to‘kilish, kuz va bargrezon yo‘lidirki, buning bog‘i ham, chorbog‘i ham shoirning o‘zidir”, - degan fikrlari betakror shoir O‘roz Haydar ijodi haqida aytilgandek tuyuladi.

O‘roz Haydarning shoir sifatidagi salohiyati havas qilarli darajada ekanligini uning nafis she‘riyati ko‘rsatadi. San‘at asarlari o‘zi yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy hayotini suratlantiradi. Zamondoshlar ruhiyat olami, tabiat voqeligi, jamiyat psixologiyasi bilan omuxtalikda, uyg‘un aks ettiriladi. Bu narsa har bir shoir mansub avlod ijdkorlarining badiiy-estetik dunyosini, ijodiy individualligining alomatlarini, o‘ziga xos boshqa shoirlardan farqlantirib turgan mahorat belgilarini oshkor etadi.

Odatda, adabiyotga kirib kelgan har bir avlod vakillarini birlashtirib turgan mushtarak jihatlari bilan barobar yana o‘zaro farqlantiruvchi alomatlari ham bo‘ladi. Bu avvalo, umumbashariy ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga ( go‘zallik, adolat, erk-ozodlik, baxt va h.k) bo‘lgan munosabatda, badiiy talqinlarda, baholashda, badiiy-esteik tafakkur madaniyatida, ularni asrash, avaylash va kelajak avlodlarga qay taxlitda yetkazish mas‘uliyatida zohir

bo‘ladi. Xalq hayoti, ijtimoiy voqelik har bir avlod oldiga hal etilishi zarur bo‘lgan yaxlit-umumiy masalalarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Shaxs erki, shaxs mustaqilligi, o‘zligini anglashi uchun kurashi hamma zamonlarda va har bir millat adabiyotida o‘zak-ustuvor vazifa hisoblangan. Hayot, ijtimoiy voqelikning O‘roz Haydar avlodi oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri – bu shaxsning mustaqilligini izlashi va topishi, millat ozodligi, vatan mustaqilligi shaxs erki masalasi edi. Bu – mazkur avlod badiiy-estetik izlanishlarining o‘zak mohiyatini tashkil etadi. Bu narsa mazkur avlod vakillari she‘riyatidagi badiiy tafakkur madaniyatida, lirik qahramonning falsafiy fikrlash tarzida, ongning tagdor, qatlam-qatlam teran ma‘nolarda ayonlashadi. Aynan shu mohiyat, oqibat O‘roz Haydar mansub avlodning XX asr oxiri va XXI asr boshlari badiiy madaniyatimiz tarixidagi nafis so‘z san‘atidagi tutgan o‘rni va ahamiyatini belgilab beradi.

## **1.2. O‘roz Haydar she‘riyatida lirik qahramon va zamon ruhi.**

Adabiyotshunoslik ilmidan ma‘lumki, estetik ideal, bu – ijodkor badiiy ongining qiyofasi. Xususan, bu narsa har bir asarda hayot materialini tanlash va unga yondashish, badiiy talqin va tadqiq etish, umumlashirish va estetik baholash prinsiplarida namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon har bir she‘rda, garchand, o‘z-o‘zini takrorlamasa-da, u ijodkor dunyoqarashining, estetik ideal, bu shoir ijodiy prinsiplarining nuqtai nazarlari va qarashlarining majmuidir.

Badiiy adabiyotda ijodkor maqsadining oliy darajadagi tasviri, inson va jamiyat xususidagi o‘y-xayollari badiiy tafakkur bilan uyg‘un holda uning estetik idealini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Estetik ideal – go‘zallik, ezgulik va estetik mukammallikning yuksak darajasi haqidagi his etiladigan konkret-timsoliy shaklda aks etuvchi tasavvurlar jami. Jamiyatda yashayotgan har bir inson ongida mukammal jamiyat, mukammal ijtimoiy munosabatlar, mukammal inson haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘lib, bularning bari estetik idealni tashkil qiladi.

Demak, ijodkor asarlaridagi lirik qahramonning hayotga munosabati, voqea-hodisalarni yoqlashi yoki inkor etishi, qanday nuqtai nazarlarni ilgari surishi, nimalarga da‘vat etishi, yurak nidolari estetik idealidan bahra oladi. Zero, har bir she‘rda ilgari surilayotgan fikr ijodkor ongida charxlanib qo‘goz yuzini ko‘radi. Shu jihatdan lirik qahramon ijodkor shaxsiyatining tarjimonidir. Ijodkorning hayotdan orttirgan tafakkur-tuyg‘ular jamg‘armasini umumlashtirgan holda badiiy tajriba birligi, sintezi san‘atning estetik nazariyasini boyitadigan manbadir.

Badiiy ijodda estetik ideal tasvirining bir necha shakllari mavjud. Ulardan eng asosiysi, idealning ma‘lum bir aniq qiyofasini o‘zida mujassam etgan ijobiy qahramon obrazini yaratish bilan bog‘liq bo‘lsa, yana biri esa, shu qahramonning tamoman aksi bo‘lgan, muallif idealining tasviri orqali idealning muayyan qiyofasini ochishga qaratilgan shakldir. Bu o‘rinda go‘zallik, donolik, jismoniy mukammallik, ma‘naviy butunlik, xunuklik,

nodonlik kabi estetik kategoriyalar ham tasvirlanayotgan estetik idealning qirralarini kashf etishda yordam beradi.

Mukammal jamiyat, unda ilm-ma'rifat va adolat ustuvorligiga doir orzular inson yaralgandan buyon u bilan hamroh. O'roz Haydarning "Musiqor", "Ruhafzo", "Qishloq falsafasi", "Aksioma", "Oq soya", "Hayot yorlig'", "Ikki odam", "Soyasiz odam", "Dunyoning mazmunin o'zgartmoq kerak", "Kechikka fasl", "Vaqt iztirobi", "Fikr" singari ko'plab she'rlari shoirning yurak nidosi. Tog'lar boshidan oqib kelayotgan shalola, yerlar tubidan sizib chiqayotgan buloq suvlari misoli bu she'rlar O'roz Haydarning ongi-shuuridan, ko'nglidan sizib chiqqan tafakkur to'lqinlari, shaffof sezgilar, tuyg'ulardir.

Jamiyat – inson – tabiat uyg'unligining badiiy sintezi, o'ziga xos tajassumi shundaki, u mutafakkir insonning fikrlash madaniyatini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Shoirning lirik qahramoni hayotga, voqelikka va hatto o'lim "yoqasidan tutganda" ham o'z umrining mazmuniga, suronli, to'zonli yillar puchmog'iga dono, sermulohaza, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan inson ko'zi bilan qaraydi. Zamon – jamiyat va inson tirikligi mohiyatini nuroniy keksa kishi qalbi orqali baholashga intiladi. Shu boisdan uning tafakkur tarzini yuzaga keltirgan hayotiy detallar bevosita tabiat va jamiyat bag'ridan sizib chiqadi. Mohiyat e'tibori bilan muayyan tiriklik faslining tabiiy hosila - samaralari bo'lib zohir topadi.

Shu ma'noda O'roz Haydarning "Aksioma", "Musiqor", "Ruhafzo", "Oq soya", "Bargrezon", "Sahro", "Tazarru", "Qonli yillar yodi", "Sukunat sadosi" singari she'rlari o'zbek she'riyatining go'zal namunalaridir. Ushbu she'rlardagi umumlashma fikrlarda, hikmatli ma'nolarda shoir konkret hayotiy muhitda yashayotgan, o'ylayotgan zamondoshimizning o'ziga xos betakror tabiatini, fikrchan kechinmalarini ko'z o'ngimizda suratlantiradi.

Anglashilyaptiki, fikrchan she'riyat uchun yolg'iz boqiy masalalarni qalamga olishning o'zi kifoya qilmas ekan. Boqiy mavzu-masalalarning har bir davrda xalq hayotida namoyon bo'lgan sahifalarini xalq tajribasi bilan,

millat hayoti bilan o'ziga xos umumlashma xulosalarda inkishof etish, jonli, aniq va tiniq odamlar fe'li-faoliyatini badiiy obrazlarda mujassamlashtirish ham taqozo etilar ekan. Ushbu jarayonda fikrlash madaniyatining saviyasi lirik xarakterning o'ziga xos betakrorligini belgilab berarkan. Bu narsa, o'z-o'zidan, bir shoir ijodida kechayotgan turli xil uslubiy izlanishlar mavjudligini ko'rsatadi. Zotan, shoirning har bir she'rida hayot materialining mohiyati va unga estetik munosabat lirik qahramonning o'ziga xos yo'sindagi fikrlashini vujudga keltiradi.

Birgina shu misollardan ham ayon bo'layaptiki, O'roz Haydar she'riyatining o'ziga xos namunalarini yaratish yo'lidagi muttasil izlanish qutlug' samaralarga olib keldi. Shoir lirikasida intellektual she'riyatning hissiy idrok bilan bog'liq uslubiy jilosini kuzatishimiz mumkin. Xususan, O'roz Haydar lirik qahramoni mutafakkirlik vazifasini ado etarkan, u inson hayotining rangin manzaralarga munosabatini bildiradi. Kechinmali holatlarga fikrchan bo'yoqlarni singdirishni ham aslo unutmaydi.

Ana shunday kezlarda "She'riyat – "tongning o'ziday rost va yorqin bir haqiqat" (Mirtemir) ekanligini yana bir karra dildan anglaysan. Ustoz Mirtemir "... nimaiki yozsam, bari hayotiy bo'lishiga urinaman, - deydi. Har mavzuning o'z shakli, o'z timsoli bor, o'sha topilmasa, she'r emas. She'r asrga ohangdosh, hayotiy, aktual va asr g'oyasini tashishga qodir bo'lmasa she'r emas..."<sup>12</sup> deganda O'roz Haydar izlanishlarini estetik baholagandek anglashiladi.

Shoirning lirik qahramon inson ruhoniy dunyosi iqlimlarini anglash orqali ijtimoiy voqelikni falsafiy idrok etadi.

O'roz Haydar lirikasida inson umrining mohiyatida nimalar yotishini mutafakkirona kashf etishga tomon yo'naltirilgan juda go'zal bir pafos hukmronlik qiladi. Shu boisdan, shoir lirikasining asosiy poetik vositalari tiriklikning mag'zini chaqib namoyon eta oluvchi mo'jaz-mo'jaz kartinalar

---

<sup>12</sup> Миртемир. Дўстлар даврасида. Адабий ўйлар. – Т.: Ёш гвардия, 1980. – Б. 50.

va sermazmun timsollar silsilasidan iboratdir. Uning shoirlik tafakkurida “so‘z obrazlar”ga nisbatan manzara obrazlar muhim o‘rinni egallashi sabablari ham shubhasiz ana shunda.

Demak, shoir she‘rlaridagi lirik qahramonning fikrlash tarzi xilma-xil shakllarda zohir bo‘lar ekan. Ushbu hol rang-barang badiiy shakllarni ham yuzaga chiqaradi. O‘roz Haydar ana shunday o‘z poetik shakllari va tiniq uslubiga egaligi bilan she‘riyatimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelgan ijodkordir. U o‘zining individual uslubida hayot materiallari taqozosiga javob bera oladigan turfa shakllarni namoyish etib kelgan shoirlar ichida, ayniqsa ajralib turadi.

O‘roz Haydar chin iste‘dod egasi. O‘roz Haydar – odam ko‘ngli iqlimlarini teran anglaydigan, qalbdan his qiladigan, tushungan dardli shoir. Zero, chinakam she‘riyat darddan, iztirobdan tug‘iladi. Shoirning zohiran quvonchli holatning go‘zal poetik ifodasi berilgandek ko‘ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g‘amida yashayotgan ko‘ngil iztiroblari silqib turadi. Vatan haqida cheksiz mehr bilan yozishining sababu shunda.

Meni kutar o‘zimdan ortiq,  
Ortiq suyar otamdan ko‘ra.  
Keng osmonni qiladi tortiq,  
Har kun turar holimni so‘rab.  
Bir qush kabi uchguday bo‘lsam,  
Parvozimga qanot tutadi.  
YO nogahon yo‘lda qoqilsam,  
Kaftga olib jim ovutadi.  
Huv do‘ngalak otam qabridir,  
Yonda onam, akamning qabri.  
Tog‘u toshlar uning sabridir,  
Qurimagan daryolar sabri...

(“Vatan” she‘ri)

Shoir osmonga doir holatlarni o'zgalarning xayoliga ham kelmaydigan tarzda tasavvur etadi. Bu hol O'roz Haydarga tumanni "nomusdan tikilgan chimmat" tarzida tasvirlash imkonini beradi:

Tuman – yerning chimmati, xolos,  
Yopinganda bo'zarar olam.  
Neki narsa jonga tegsa, bas,  
Yashiringisi kelar yerning ham.

Oy oldida, quyosh oldida  
Goh tushunar qadr-qimmatin.  
Yopingisi keladi shunda  
Nomusdan tikilgan chimmatin.

(”Tuman” she’ri)

O'zini tinimsiz tekshiradigan, bosgan qadamini nazorat qiladigan odam uchun yashash hech qachon oson kechmagan. O'zida yo'q fazilatlarga mahliyo bo'lib, olamga shishingan dimog' bilan qaraydigan kimsalargina o'zining har bir ishida tengsiz fazilat, har bir aytganida ulkan hikmat ko'radi. O'ziga talabchan odam hayotda nima qilsa ham izlaganiga yetmagandek, maqsadiga erishmagandek tuyulaveradi. O'zdan qoniqmaslik hissi kishini qiynaydi. Buni shoir "Ikki odam" she'rida shunday ifoda etadi:

Men ikki odamman: zohirim boshqa,  
Botiminda yashar boshqa bir odam.  
Umr xotimasin bitgandek toshga,  
Neligim, kimligim siyratimda jam.

Faqat men qaqnusdek olov ichraman,  
Ichimni kuydirsa kuydirsin olov.  
Zohiran o'zimdan darrov kechaman,  
Botinim – olovda o'sguvchi yalov.



Chiqisha olmayman balki shu sabab,  
Necha yilki o‘zim bilan bir o‘zim.  
Axir, ikki dushman ikkisi, ajab,  
O‘ymoqchi bo‘ladi tong qotsam ko‘zim.

Chetdan izlamayman neki dushmanni,  
Qarang, ikkisi-da ikkita hakam.  
Boshin qovushtiray ikki dushmanni  
Deya jon halakman, men –ikki odam.

Insonni anglash, tushunish murakkab. Goh shod, goh g‘amgin, goh mag‘rur, goh zabun, goh buyuk, goh pastkash, goh g‘olib, goh mag‘lub inson hayotda isyonlar ichra yashaydi, shoir aytganiday, ” Faqat men qaqnusdek olov ichraman, Ichimni kuydirsa kuydirsin olov. Zohiran o‘zimdanda darrov kechaman, Botinim – olovda o‘sguvchi yalov”. O‘zlikni anglash, o‘zlikni topish g‘oyasi hamma zamon shoirlari uchun ham alohida mavzu, muammo sanalgan. O‘roz Haydarning ”Ikki odam” she‘rini o‘qir ekanmiz, beixtiyor Abdulla Oripovning ”Suvrat va siyrat” she‘ri yodga tushadi:

Mayli suvratimga boqqilu quvon,  
Lekin siyratimga tashlama nazar.  
Bir yoqdan tuganmas baxt berdi jahon,  
Bir yoqdan tuganmas o‘kinch va kadar.

Charog‘on umrimni yoritgan quyosh  
Torgina kulbamga boqmadi goho.  
Zamindek aylangan savdoli bu bosh  
Qoldi qismat ichra zamindek tanho.

Oh, nechoq ranglarga to‘liq bu jahon,  
Oh, nechoq shirin shu tiriklik, kadar.  
Mayli, suvratimga boqqilu quvon,

Faqat siyratinga tashlama nazar.

Ikki she'rda ham inson hayoti, umri, tabiatidagi nomutanosiblik aks etgan.

O'roz Haydar ana shunday o'z so'ziga ega zabardast shoir. U butun olamga poetik nazar bilan qaray olgan ko'ngil tarjimoni. Peyzaj lirikasi shoir she'riyatining takrorlanmas inkishofidir. Shoir she'rlarida shunday satrlar borki, umidsizlik bilan boshlanib, misralar so'ngida qalbingizda yana Umid urug'ini ekadi:

Ufq uzra yoyildi tuman,  
Ko'k ro'molin yerga tushadi.  
Oyoqchisoy sohilida man  
Yurgaimni nonday ushatdim.

Qarang, qanday ilohiy chiroy,  
Suv parisi soyda dur sochar.  
Ishq uzugin o'g'irratib oy  
Xayol qizi bilan sirlashar.

Yulduzlar-chi kumush kokilin  
To'lqinlarga chayib o'ynaydi.  
Tevarakning buzib uyqusin  
Shaddod sabo yelib to'ymaydi.

O'pmoq bo'lib osmon ravog'in  
Erkalanib bo'y cho'zar terak.  
Ha, ertaga, tong sahar chog'i  
Har chechakka aylanar yurak.

O'roz Haydarning muhabbat lirikasi ham o'ziga xos musiqiylikka ega. Lirik qahramonning iztiroblari-yu, oshiqning alamli zorlari, xayoliy muhabbat ma'budasining sanamligi tarannum etiladi bunda. Ilk sevgining inson yuragida o'chmas iz qoldirishi, bir umrga ta'qib qilishi "Yana sen saridir

intilish gali, Qaytish chog'ida ham senga qaytaman" tarzida o'quvchiga kuchli ta'sir etadi. Lirik qahramonning ayriliqda yonishlari takrorlanmas tashbehlarda aks etadi.

Ishqning jafosidan safo topmasam,  
Uzilmagan gulday so'lishim ayon.

Ba'zan lirik qahramon chin muhabbatni qo'msaydi:

Yolg'on muhabbatu chuchmal mehrdan

Bezidim,

O'zni sevmoqdan.

Yoki shoirning: "Otam ishqdir, onam ishqdir, manam Ishqdan, ozoring ishq, bozoring ishq, sanam Ishqdan" deyishiga sabab olamning asosi ishqdir.

O'roz Haydarning o'ziga xos jihatlaridan biri shunda-ki, u she'riyatda qo'llanib kelayotgan timsollarni ko'pam takrorlavermaydi. O'ziga xos poetik nazar bilan ifodalaydi. Xoh tabiat manzaralarida bo'lsin, xoh biron holat bayoni bo'lsin jamiki detallarda xalq dardini anglash va yoritib berish birinchi o'rinda turadi. Lirik qahramonning yurak nidosi – bu ko'ngilchanlik, yig'loqi pessimizm yoki irodasizlik emas, balki jasorat to'la tuyg'ular isyonidir. Qalbi ozor chekayotgan shoirning vujudidan sizib chiqayotgan bu misralar ko'ngillarga o't qalaydi. Lirik qahramonning fikrcha, inson, jamiyat o'z xatolarini tan olsa, o'ziga xos yo'ldan yursa, bu vijdon uyg'oqligining o'zidir. Bunday inson jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini poklashga loyiq shaxsdir. O'zlikni anglashga intilish shoir she'riyatida o'q ildizni tashkil qiladi. "Yuragim shivirlar: Sevgi daraxti Allaqachon qurib to'kkan yaprog'in. Manovi olomon neni sevaru Nega aza tutar bilmaydi tag'in". She'r davomida umidsiz insonning qalb iztiroblari tasvirlanadi. Inson hayotda nimani istashini bilishi muhim.

Inson ruhyatini murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatish, yorqin xarakterlar, tasvirlar yaratish, voqelikni badiiy tadqiq qilishda umumbashariy g'oyalarni ilgari surish shoir badiiy niyatining yana bir belgilaridandir. Eng

muhimi, ana shu g'oyalarni to'kis badiiy shakllarda, obrazli til vositasida o'ziga xos tarzda ifodalay olgan.

O'ziga xos xalqona jaydari falsafali, salmoqli fikrlashlar, teran mushohada va olovli hissiyotlar egasi bo'lgan shoir she'rlari boshqa bir ruhoniy olam yaratmoqda. Ma'nan va komil odamlar ana shu yorug' dunyoning barkamol fuqarolari bo'lishini xohlaydi.

Shoirning soddagina diltortar misralari xuddi qalb tubidan taralayotgan kuyga o'xshaydi, u insonni hech qanday ikkilanishsiz sevadi, hech qachon unga xiyonat qilmaslikka qasam ichgandek tuyuladi go'yo.

She'rda insonning kechinmalari aks etadi, ya'ni har qanday kechinma she'r misralari qiyofasida moddiylashadi. Shoirning aytmoqchi bo'lgan fikri shu.

Inson o'limni eslarkan, tabiiy ravishda vahimaga tushadi, zero, yurilmagan yo'l hamisha sirlidir. Ammo, shoir nazdida yana ham dahshatlisi, "abadul-abad Orzusiz, sevgisiz yashash"dir. Orzusiz, sevgisiz yashashda ma'ni, maqsad, go'zallik, insoniylik yo'q. Bu kabi umr kechirish bema'nilikning o'zginasidir. Shoirning bu xildagi she'rlari shundan shohidlik beradiki, lirik qahramonning fikr-o'ylari yuksak insonparvarlik g'oyalar, olijanob tuyg'ular bilan sug'orilgan. Shoir insonning hayot yo'lida, umri – tiriklik chorrahalarida uchragan odamlarga bo'lgan munosabatida, obyektiv voqelik jarayonlariga bildirgan fikrlarida, fidoyi inson fe'li-faoliyatida xalqimizning olam va odam taqdiriga kamarbasta insonsevarlik tuyg'ularini ifodalaydi.

Inson umri – kiprik qoqqunchalik lahzalarga teng. Oddiy va sodda satrlar insonning tiriklik saboqlariga aylanmoqda. Bizni har bir kelajak lahzalardan samaralar undirishga, ibratli yashashga undamoqda.

Shoir yashayotgan ijtimoiy muhit, bu zamon va makonda mujassamlashgan borliq dunyosidir. G'oyaviy niyatning badiiy ifodasi estetik ta'sir quvvati bilan belgilanadi. Barcha poetik vositalar uning go'zalligi uchun xizmat qilishi lozim. Shoir yolg'iz ruhiyat stixiyasi ila hayot materialini

qovushtira olishi, yaxlit timsol yaratishi darkor. U mohiyatan qarama-qarshilikdan tarkib topgan shaxs ruhiyatini badiiy obraz orqali ifodalashi lozim. Timsollar zimmasidagi ruhoniylar, fikriy erkinlik shoirni cheklanganlikdan xalos qiladi. Asl shoirning ma'naviy-intellektual tabiati yorug'likka aylangan nur monand. Nurning tabiati qanchalik katta salohiyatga ega bo'lsa, chinakam shoirning she'riy zakosi ham shunchalik noyob va tansiqdir. Har ikkisi qanchalik individual bo'lmasin, baribir kamyoblik jihatidan umumiylikka ega. Ular erishgan nurli samaralar she'riyat ko'nglida saqlanib qoladi. Qalb ham, aql ham anglab yetolmagan tabiat va jamiyat hodisalarining jonsiz tavsifi, noaniq ifodasi bizga kerak emas. Agar qalb kuchlarini, tafakkur imkoniyatlarini harakatga sololmas ekan, jilla qursa tabiatning o'zidek timsolli ma'nodor bo'lib qolsin. Yoki, tabiat hodisalari odamlarning ma'naviy - intellektual ehtiyojlariga javob beruvchi g'oyalarni ifodalay ekan, qalb ham o'z faoliyatida tabiatning sir-asrorlarini aks ettirishi zarur. Ushbu hol xususiy holda ham, umumiy holda ham haqdir, amaliy qonuniyatdir. Shoir hech qachon xudbin bo'lmasligi darkor. U o'zini o'zi tanho voqelik sifatida anglashi zarur. Faylasuf esa tabiat orqali tasavvurlar haqida karomat qilgan bir paytda shoir tasavvurlar orqali tabiat haqida bashoratlar aytadi.

O'roz Haydar she'riyatida tabiat va jamiyat muammolariga keng to'xtalangan. Har bir tabiat hodisasidan o'ziga xos xulosalar chiqarilgan. Quyidagi "Bargrezon" nomli she'r fikrimizni isbotlaydi:

Kunlar hasratini to'kdi shivirlab,  
Xazonlar unidan to'lg'ondi jimlik.  
Junjikdimi zamin, qo'ydi qimirlab,  
Ufq to'zg'ib qoldi ko'chganday qumlik.  
Turnalar havorang qanotlarini  
Yelpig'ichday yoyib quyoshni yelpar.  
Ananaslar kiygan oltin to'nini,  
Bo'ylari tuprog'u tog'ni elitar.

Umidsiz odamday so‘narib anhor  
Bemajol, erinib oqadi sokin.  
Qirg‘oqdan jilolmay adashgan bahor  
Kuzak shamoliga sochadi zorin.

Kunlar hasratida bargrezon yodi,  
Mezon iplaridek chuvalansa ham  
Davraga chorlaysan tutgancha otim  
O‘, ona diyorum, o‘, dardi malham

O‘roz Haydar uchun so‘z moddiy bir narsaki, uni shoir bizga bamisoli hovuchida ushlab uzatadi. Shuning uchun “zamin to‘g‘onadi”, “kunlar hasrat to‘kadi”, “adashgan bahor kuzak shamoliga sochadi zorin”.

She‘riyat shoir bilan o‘quvchining dil suhbatlaridir. Shoir uchun bu suhbat – yurakni borlig‘i bilan ochmoq, o‘quvchi uchun bu yurak zarblarini anglamoqdir. She‘rni anglamoq ham o‘zi iste‘dod. Biz bu iste‘dodning nomini nazokat deymiz, nozikfahmlik deymiz. O‘roz Haydarning eng yaxshi she‘rlari o‘quvchini ana shu dil duhbatiga tortadi, didini tarbiyalaydi.

She‘riyatning buyuk qudrati uning ishontirish kuchidadir. Biz har bir she‘r ortida uning egasini ko‘ramiz, uning ma‘naviy olamini tasavvur etamiz, o‘sha she‘r ortida turgan odam o‘zining samimiyati bilan, halolligi bilan bizni o‘z tuyg‘ularining chinligiga ishontirishi kerak. She‘r har doim shoirning qismatidir. Shoir kayfiyat odami hisoblanadi. O‘roz Haydarning ”Bargrezon” she‘rida ham shoirning mahzun kayfiyati hukmron. She‘rda tabiat fasllaridan kuz faslida barglarning umri nihoyasiga yetgach, sariq tusga kirib, xazon fasliga yuz tutish holati qalamga olingan. Shoir barglarning xazon bo‘lishi holatidan shoirona xayollarga beriladi: dunyo hikmatlarga boy. Tug‘ilish bor, o‘lim bor, boshlanish bor, tugash bor, ibtido bor, intiho bor, yaxshilik bor, yomonlik bor, ezgulik bor, yovuzlik bor.... Inson muazzam tabiatning bir bo‘lagi sifatida uning qonuniyatlari bilan hisoblashishga

majbur. Hayotda hech narsa abadiy emas. Shoir tabiat xossalari haqida fikr yuritar ekan, ulardan insonlar hayotiga xos xulosalarga keladi. "Umidsiz odamday so'narib anhor Bemajol, erinib oqadi sokin" misralarida anhorning oqishi hayotdan umidi so'ngan odamga o'xshatiladi. Umidsiz odam – harakatsiz, intilishsiz, maqsadsiz, ma'nisiz yashayotgan, ya'ni shunchaki "kun ko'rayotgan" odam. "Fikr – botiniy qiyofa, odamning, shaxsning ichki qiyofasini ko'rsatib turuvchi ko'zgu. Fikri yo'q odamning qiyofasi ham bo'lmaydi. Fikr odamning o'zligini, o'ziga xosligini bildirib, mavjudligini ko'rsatib, talab qilib turadi. Fikr, aslida "men mavjudman" degani"<sup>13</sup>. Inson hayotda maqsadsiz, fikrsiz yashashi mushkul. Oddiygina misralar zimnida katta falsafiy mazmun yashiringan. "Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, illat izlaganga illatdir dunyo" deganlaridek, shoirning mas'um qalbi qatlaridan sizib chiqqan misralarda dard bor. Umr o'lchovli, uni shoshib, ezgu ishlarni ko'proq qilishga ulgurib yashashga intilish kerak. Shoir go'zallikning, ezgulikning dardi bilan og'rikan bemor. Uning she'rlari o'quvchilar qalbini to'liqroq egallaydi, xotiralarida abadiy qoladi.

Xulosa qilib aytganda, O'roz Haydar lirik qahramoni tabiatidagi isyonkorlik psixologiyasini namoyon qilish bosh mezon. Yolg'izlik, sukunat, ruhiyat, ish-muhabbat, baxt va baxtsizlik haqidagi mulohazalar yuritiladimi, ezgulik va qabohat, yaxshilik va yomonlik, tun va tong, go'zallik va badbinlik xususida bahs kechadimi, oxirida yagona mohiyatga – lirik qahramon ruhiyatini falsafiy-psixologik yoritishga qaratiladi. Va yaxlit olinganda, shoir she'riyatida o'ychan-mulohazakor, isyonkor tabiatli, kuyinchak, erkin ruhli, sodda, jaydari, kurashchan, faol inson qiyofasi gavdalanadi. Uning she'riyatida ruhoniyl erkinlik insonning baxtini ta'nimlovchi bosh omil, degan falsafiy ma'no mujassam.

Ikkinchidan, tabiat-peyzaj lirikasida ham insonsevarlik g'oyalari tajassum topgan. Sahro, barg, yomg'ir, ohu, daraxt kabi timsolli obrazlar talqini o'quvchining fikriy tarbiyasiga, tuyg'ular tarbiyasiga qaratilgan. Go'zallikni tuyish, yoqlash, qaror toptirish – shaxs baxtining muhim qirralaridan biri.

---

<sup>13</sup> Н.Эшонкул. Мендан "Мен"гача. Тошкент, Академнашр, 2014 йил, 14-бет.

Zero, tabiat o'z tarovati va nafosati bilan hislarimizni, tuyg'ularimizni, tafakkurimizni go'zallik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik psixologiyasi so'z san'atining tur va janrlariga daxldor emas. U san'atkorning millatning bir vakili, jamiyat a'zosi sifatidagi nuqtai nazarini, ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabatini aks ettiradi. Shu ma'noda, tabiat ranglari, bo'yoqlari, holatlari tasviri orqali inson hayoti muammolarini, millatsevarlik g'oyalarini aks ettirgan.

Uchinchi, umumbashariy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning hayot va jamiyat muammolari bilan uyg'unlikda aks ettirilishi shoir lirikasidagi davatkorlikni, jo'shqinlikni asoslaydi. Psixologik talqinning timsollarga tayangan falsafiy mushohadakorligi, faolligi shoir lirikasidagi realistik tasvirning tasvirning erkinligini ta'minlaydi. U shaxsning ruhoniy erkinligini yoqlaydi, millat va Vatan manfaatlariga xizmat qilishga qaratiladi.



## 2.1. O‘roz Haydar sonetlarining badiiy jihatlari.

She‘riyatni chinakam san‘at namunasiga aylantiradigan xususiyatlardan biri unda ijtimoiy hayot mazmun-mohiyatini va inson ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas murakkab lahzalarning, qaysi shaklda bo‘lishidan qat‘iy nazar, badiiyat darajisida berilishidadir. Har bir iste‘dod egasi badiiy kashfiyotlar sari izlanishlar yo‘lida so‘z san‘atidagi ana shu yuksak mezon darajisida ijod qilishga intiladi. Buning yorqin misolini milliy adabiyotimiz uchun nisbatan yangi janr hiosblangan sonetda qalam tebratayotgan shoirlarimiz ijodida ham kuzatishimiz mumkin.

Iste‘dodli shoir O‘roz Haydarning har bir yangi she‘riy asarini o‘qigan kishi ijodkor a‘molini isbotlaydigan ana shu badiiyat qonunini his etadi. Darhaqiqat, O‘roz Haydar bugungi she‘riyatimizda o‘z uslubiga ega shoir sifatida adabiy jamoatchilik e‘tiboriga tushgan. Shoirning ”Aksioma”, ”Oq soya”, ”Vaqt iztirobi”, ”Ruhafzo”, ”Kechikkan fasl” kabi to‘plam va saylanmalaridagi dastlabki an‘anaviy usullardagi she‘rlaridan tortib jahon she‘riyatida ommalshgan uslubda, xususan, eksistensialistlarga xos asarlarida inson qalbidagi muhim ruhiy kechinmalarni tahlil qilish, uning ruhiyatidagi favqulodda va turli tovlanishlarni rangin tuyg‘ular, falsafiy taliqlar orqali berilishi, eng muhimi, inson hayotidagi butun murakkabliklar, ijtimoiy hayot manzarasining o‘ziga xos poetik ifodalanishi bugungi o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Sonet (italyancha sonare – yangramoq) – jahon poeziyasida keng yoyilgan lirik janr. U dastlab Italiyada paydo bo‘lgan va so‘ng jahonga tarqalgan. Italiyada XIII-XIV asrlarda Dante, Petrarka, keyinchalik Mikelanjello; Angliyada V.Shekspir (XVI asr), Polshada Mitskevich, Rossiyada A.S.Pushkin sonetlari jahonda shuhrat tutgan. Rus adabiyoti ta‘sirida o‘zbek poeziyasida ham sonet janri kirib keldi. Usmon Nosir va Barot Boyqobilov sonetlari adabiyotimiz xazinasiga qo‘shilgan munosib hissadir.

Sonetning a‘nanaviy-poetik belgilari: sonet shakliga ko‘ra 14 misradan tashkil topadi; she‘r kompozitsiya jihatidan ikki qismdan iborat: birinchi

qism ikki toʻrtlik band boʻlib, u ”katren” va ikkinchi qism ikki uchlik band boʻlib, u ”terset” deb yuritiladi. Katren va tersetlar bir-biriga bogʻliq boʻladi. Sonetning qofiyalanish tartibi: a) mumtoz sonetlarning toʻrtlik bandlari a+b+b+a, a+b+b+a; uchlik bandlar v+v+g, d+g+d tarzida qofiyalanishi koʻproq uchraydi; b) oʻzbek shoirlari yaratgan sonetlarning qofiyalanish tartibi rang-barang. Chunonchi, M.Shayxzoda Vilyam Shekspirning sonetlarini a+b-a+b, v+g+v+g; d+e+d, e+s+e sxemasida oʻzbek tiliga tarjima qilgan; shoir Usmon Nosir ”Yana sheʼrimga” sonetida katren bandlarini a+b+a+b, v+g+g+v; terset bandlarini d+e+e, d+s+s tarzida qofiyalagan.

Shoir Oʻroz Haydarning bir sonetini olib koʻraylik:

Qanday ogʻir ichmoq ishqsizlik mayin,	–a
Vatansiz kimsaday atrofga boqmoq.	– b
Sevgi maktubini olovda yoqmoq,	– b
Quyoshga piching-la jilmaymoq mayin.	–a

Katren

Oʻzingni ham ilk bor uchratgandayin,	–a
Xuddi begonaday qarshilagan chogʻ.	–b
Iblismi, u dunyo qilganidek oq	–b
Mavhumot oʻylardan qochamiz tayin.	–a

Terset

Tirik chogʻi bir bor eʼzoz topmay, bas,	–v
Nechun marhumlarga qilurmiz havas.	–v
O, ishqsizlik mayi – dajjol ogʻusi,	–g
Ajdar ogʻizidagi oʻtni soʻndirgung.	–d
Qoʻzgʻatib zaminning koʻhna qaygʻusin,	–e
Paxta chanogʻida toshni undirgung.	–d

Sonetning qofiyalanish sxemasi: katren – a-b-a-b, a-b-b-a; terset: v-v-g, d-e-d.

O‘zbek sonetiga doir tadqiqotlar va zamonaviy o‘zbek she‘riyati o‘zbek she‘riyati manbalariga tayangan holda, o‘zbek sonetnavisligini xronologik nuqtai nazardan to‘rt davrga ajratish mumkin.

20-30-yillar she‘riyatida, asosan, Cho‘lpon, Botu va Usmon Nosir ijodida ushbu janrdagi she‘rlarning namunalari uchraydi. Aksariyat o‘zbek adabiyotida ilk sonet yaratgan ijodkor tadqiqotlarda shoir Usmon Nosir o‘zbek ilk sonet yaratgan ijodkor sifatida ko‘rsatiladi. B.Mixaylichenkoning “O‘zbek soneti poetikasi” kitobida esa birinchi o‘zbek soneti shoir Botu qalamiga mansubligi aniq dalillar, misollar orqali asoslab berilgan.

O‘zbek sonetnavisligining ikkinchi davri o‘tgan asr 60-80-yillarini o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda o‘zbek she‘riyatida sonet janri to‘la shakllanib, taraqqiyot bosqichiga kirgan, deyish mumkin. Chunki aynan 60-80-yillarda bu lirik janr o‘zbek she‘riyatida o‘z o‘rnini topib, faol adabiy janrlardan biriga aylandi hamda muttasil tarzda mavzu doirasini kengaytirib bordi. 60-80-yillar o‘zbek sonetidagi o‘sish-o‘zgarishlar samarasi Barot Boyqobilov, Muhammad Ali, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Xayriddin Saloh, Tohir Qahhor, Gulchehra Jo‘rayeva kabi ijodkorlar she‘riyatida namoyon bo‘ldi.

O‘zbek soneti rivojidadagi uchunchi davr 80-90-yillarni qamrab olib, u mavzular xilma-xilligi, ijtimoiy mazmunning yetakchi o‘rin tutishi, zamon muammolarini chuqur aks ettirishi bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Bu davrda To‘ra Mirzo, Faxriyor, O‘tkir Nurillayev, Sirojiddin Rauf singari ijodkorlar sonet janri imkoniyatlaridan keng foydalangan.

Nihoyat, to‘rtinchi davr – XXI asrning dastlabki o‘n yili bo‘lib, bu davr sonetlarida modernlashuv jarayoni yaqqol seziladi. Bunday holat XXI asr sonetlarining aksariyati uchun xos bo‘lib, ularda struktura va poetik mazmunda yangilanishlar borligi aniq bilinadi. Ushbu davr sonetchiligida, ayniqsa, obrazlar rang-barangligi, originalligi va ko‘pqatlamligi bo‘rtib ko‘rinadi.

Yevropa va rus adabiyotshunosligida sonet janri atroflicha tadqiq etilib, monografik tadqiqotlar, risolalar yaratilgan. Shuningdek, ushbu muammo

bo'yicha dissertatsiyalar himoya qilingan. Lekin bu sonetshunoslikka doir ilmiy-nazariy muammolar to'la hal etildi, degani emas. Ushbu janrda asar yaratilar ekan, sonet poetikasiga doir ilmiy izlanishlar to'xtamaydi. Bundan tashqari, o'zbek sonetlarini sistemali o'rganish masalasi adabiyotshunosligimiz oldida ochilmagan qo'riq bo'lib turibdi.

Nazar Eshonqul shoirning "Kechikkan fasl" nomli saylanmasi (2010) haqidagi maqolasida: "O'roz Haydar savqi tabiiy shoir. Uning she'rlarida ko'ngilning isyoni, silsila-yu g'alayonning shovur va saslari, evrilish va inkorlari o'ziga xos ohang, obraz qiyofasida yaxlilashadi. Shoirning shunday quyma tashbehlari borki, ular bugungi she'riyatimizning o'ziga xos yutug' sanaladi", - degan edi. Shoirning "Falak favvorasi", sonetlardan tashkil topgan kitoblarini o'qigan o'quvchi insoniy his-tuyg'ulardan, nafis jilolangan badiiy tashbehlardan bahra oladi, dunyoviy nazmga xos ohanglardan zavqlanadi.

Ma'lumki, sonetda ijod qilish adabiyotimizda XX asrning 30-yillarida boshlandi. Mavjud adabiy-ilmiy manbalarda shakliy jihatdan tasnif etiluvchi bu janr dastavval Italiyada paydo bo'lgan, uning asoschisi Franchesko Petrarka hisoblanadi. Yevropa she'riyatining mashhur vakillari: V.Shekspir, Dante, I.Gyote va boshqalar bu janrning yuksak namunalarini yaratishgan. XX asrning ikkinchi yarmida jahon she'riyatining yirik namoyandalari sonetlari rus tilida nashr etilib keng tarqalgan bir ijtimoiy-madaniy muhitda o'zbek shoirlari ham bu janrda ijod qila boshladilar. Milliy she'riyatimizda bu janrning ilk namunalarini Usmon Nosir yaratgan. Shoir klassik sonet qonuniyatiga qat'iy amal qilgan. 30-yillar oxirlarida Shukrullo sonetlari yaratildi. Keyinchalik M.Shayxzoda, Mirmuhsin, R.Bobojon ushbu janrda ijod qilishdi. Bu shoirlar yaratgan sonetlarda, asosan, vatanparvarlik g'oyalari ulug'landi. O'sha davr she'riyatida sonet janridagi she'rlarning paydo bo'lishi va ularda vatanga sadoqat tuyg'usining yetakchilik qilishini, ba'zi adabiyotshunosliklar fikricha, "o'sha davrning notinch muhiti taqozo qilgan edi". Albatta, bu qarashlarda

asos bor. Chunki o'sha davr ijtimoiy muhitida boshqa xalqlar shoirlarining yevropacha usulda she'r yozishlarini rag'batlantirar edi.

Ammo sonet janrining ham murakkab qoidalari borki, unga amal qilish, turg'un she'riy shaklga xos mezonlarni o'zlashtirib ola bilish zarur. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab Rauf Parfi, Abdulla Sher kabi shoirlarimiz bu janrda muvaffaqiyatli ijod qilib o'zbek kitobxonlari e'tiborini qozonishdi. Taniqli she'rshunos olim Ummat To'ychiyevning ta'kidlashicha: "Barot Boyqobilov – o'zbek sonetining asoschisi". U shoirning 421 ta sonetdan tashkil topgan kitobini, sonetlardan iborat "Samarqand", "Oltin to'y" degan ikkita gulchambar tuzganini hamda "Samarqand ushshog'i", "Men kashf etgan O'zbekiston" degan dostonlar yozganini qayd etadi. Adabiyotshunoslarning fikricha, shoir sonetlari janrning murakkab poetikasiga to'liq javob beradi. Afsuski, bu fikrni to'liq xulosa deb bo'lmaydi.

Ma'lumki, klassik sonet murakkab qonuniyatlarga asoslanadi. Birgina qofiya tuzilishi erkin sonetdagi qofiyalanishdan tubdan farq qiladi. Ya'ni ikkita katren (a-b-b-a, a-b-b-a) shaklida qofiyalandi. Sakkiz qatorning ikki qofiyaga bo'ysunishi shoirdan cheksiz zakovat kuchini talab etadi. Jahon sonetshunoslari o'rtasida haqiqiy sonet qanday shaklda qurilishlaigi borasidagi ijodiy bahslar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotgan emas. Shu o'rinda shoirlar "olimi" Abdulla Sherning fikri bizda qiziqish uyg'otadi. U O'roz Haydarning "Falak Favvorasi" kitobiga yozgan so'zboshisida sonetning shaklan buzilishiga nglizlar sababchiligini dalillaydi. Shekspirning sonetlari o'z vaqtida "turli musiqiy notalar uchun yozilgan sonetlar deb atalgan 6 ta turli hajm va vazndagi she'rlardan iborat" ekanligini mutaxassislar e'tirof etishgan. Xususan, aruzda bitilmagan ash'orni g'azal deb bo'lmaydi. Darvoqe, Abdulla Sher janrning murakkab qoidalariga amal qilish oson emasligi haqida to'xtalib shunday deydi: "Sonet nihoyatda ehtiyotkorlik va mehrga yo'g'rilgan munosabatni talab qiladigan shakl, ya'ni sonet yozish uchun sonetni sevish kerak". Shu o'rinda XIII asrdayoq "Italiya soneti" yoki "Klassik sonet" deb atalgan nihoyatda murakkab janrda ijod qilgan ulug'

alloma, shaxs, olim va mutafakkir, davlat arbobi Franchesko Petrarka "Sonet janrining otasi" degan qutlug' nomga sazovor bo'lganini aytib o'tish zarur. Tirikligidayoq italyan xalqi unga shuhrat toji –dafna barglari chambaragini kiygizgan. Shoirning konsona, madrigal, senegal, ballada, epistolalari bilan birga ilmiy-tanqidiy maqolalari butun insoniyatning ma'naviy mulkiga aylanib qoldi. U o'z asarlaridan ta'sirlanib Fransiyada "avlodlar" yaratilishi, Portugaliyada Kamoens, Ispaniyada Gongora, Angliyada Vordsvort, Milton, Shekspir, Polshada Koxanovskiy, Olmoniyada Bexer singari izdoshlar paydo bo'lishi bunga misoldir. Afsuski, bu ulug' shoir sonetlari Shekspir sonetlaridan keyinroq ona tilimizga o'girildi. Shu bois klassik sonetga emas, erkin sonet deb nomlangan janrga murojaat qilish kuchaydi.

"Sonet" so'zi, asli, italyanча bo'lib, jaranglamoq ma'nosini bildiradi. Sonet – o'n to'rt qatorli mukammal she'r, uning o'ziga xos qonuniyatlari bor. Sonet ikki qismli: birinchi qismda ikkita to'rtlik – katren, ikkinchi qismda ikkita uchlik – tersetdan tashkil topadi. Katrenlar uchun ikki xil qofiya, tersetlar uchun uch ohangdosh qofiya kerak! Qofiyalar o'ta jarangdor, porloq bo'lmog'i kerak. Sonet kompozitsiyasi – qurilishi shundaki, uning barcha bandlari mustaqil tugallangan she'r bo'lishi, birinchi to'rtlikda asosiy mazmun berilishi, ikkinchi to'rtlikda asosiy mazmun berilishi, ikkinchi to'rtlikda o'sha mazmun, mavzu rivojlantirilishi va yuksak cho'qqiga olin chiqilishi, birinchi uchlikda yechim, xulosaga o'tish, ikkinchi uchlikda teran, donishmandona, falsafiy fikr-xulosa aytilishi zarur.

Petrarkaning sonetlari ana shu yechimlar qo'yilgan durdona asarlardan. Quyidagi sonetiga e'tibor beraylik.

Asar yo'q oromdan. Tashvish –chikora,  
Dilda zavq va gumon, o't va muz –hamroz.  
Xayolan ko'klarda etaman parvoz,  
Qulayman yuztuban yerga –sadpora.

Ilk katrenda lirik qahramonning bezovta holati , ya'ni zavq va gumon, o't va muz o'rtasida qattiq iztirob chekayotgani badiiy ifodasini topgan.

Quchaman dunyoni tushday ovvora,  
Muhabbat xudosi qaytarar ixlos.  
Na qulman, na ozod. O'ldirar bexos!  
Yo'q, shoshmas. Boraman umidni chorlab.

Tushkun kayfiyatdagi lirik qahramon sabot-iroda tufayli "tiklanib", O'zining o'tkinchi narsalarga qul emasligini, balki qalban ozod inson ekanini anglab daqiqa sayin umidni chorlayapti. Umid unda kurashga va yashashga ishtiyoq uyg'otmoqda. Endi lirik qahramon:

Ko'rman-u, ko'raman. Bo'zlayman – tilsiz.  
O'lgim kelar, shu tob yashash istayman.  
Yuraman. Kunlarim o'tadi yo'lsiz.

Yig'im –kulgu. Shayman na hayotga man,  
Na mamotga. Orzu-dardlarim yolg'iz...  
Qalb otashim uchun ajr – menga tan, -

deya dadil xulosaga keladi. Madonna Lauraning hayotiga bag'ishlangan bu sonetda klassik sonet qoidalariga to'la amal qilingan. Birinchi va ikkinchi katrenda zavqu qayg'u tezis hamda antitezisda mukammal aks etgan. Keyingi ikki tersetda ana shu ikki jarayon sintez qilingan. Oshiq borliqni "ko'rman-u, ko'raman" yoki "o'lgim kelur, shu tob yashash istayman deya aniq qarorga keladi. Ishq oshiqni halokat chohidan qutqarmoqda. Ammo ma'shuqaga yetmagan oshiq qalbida orzu yo'lg'z dardligicha qolmoqda. Dunyo baxt-saodatdan iborat degan to'xtamga kelshdan shoir keskin chekinadi. Iztirob hayotda ko'p bo'ladi. Tarjimon Shukur Qurbon sonetninig jarangdorligini to'la saqlab qolgan. Satrlardagi jo'shqin ehtiros va olovli shiddat, yombi fikrlar sonet ma'no salmog'ini yanada

orttirgan. Ilohiy ohangdorlik she'riyat muhibi qalbiga fazoviy joziba kuchini baxsh etadi.

Petrarka sonetlaridan avval Shekspir sonetlari o'zbek o'quvchilari qalbiga kirib kelgan. Adabiyotshunoslar Shekspir sonetlari klassik sonetga, ba'zida umuman sonetga aloqadorligi yo'qligi yuzasidan yozishmoqda. Shu o'rinda "klassik sonet" aruzda yozilgan g'azallarni eslatadi. O'roz Haydar ham Shekspir sonetlariga murojaat qilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Professor-Qozoqboy Yo'ldoshev ham kitobga kiritilgan maqolasida sonet janrining turlanishiga e'tibor qaratgan. U O'roz Haydarning bitiklari sonetning shakl-shamoyiliga javob berish-bermasligiga qarab emas, ma'no salmog'iga urg'u beradi. Jumladan, "Shomni unsiz yoqar shafaq yallig'i" misralari bilan boshlanuvchi she'ri yuzasidan chuqur tahlil yuritilgan. "Ayniqsa, sonetning yakuni sifatida berilgan ikkilik badiiy ta'sir energiyasining quvvati bilan hayratga soladi: "Ufqqa-chi sabo quritmoq bo'lib Qo'yar quyoshning ho'l ko'yilagin ilib". Shoirlar shu vaqtgacha ko'p tajribalar qilishgan. Aqlga sig'mas, xayolga kelmas tashbehlar ishlatishgan. Ammo O'roz Haydarga qadar botayotgan quyoshni sabo tomonidan quritish uchun ufqqa ilib qo'yilgan ho'l va qizil ko'ylak tarzida tasvirlash hech kimning esiga kelmagan" deya shoir iste'dodiga yuksak baho bergan. O'roz Haydar sonet olamini yanada chuqur o'rgandi. Petrarka sonetlari qarshisida dovdirab qolmay, aksincha, ularga muhabbat bilan yondashdi. Albatta Shekspir kiritgan yangilik – sonetda uchta to'rtik va so'nggi ikki satrda xulosa aytilishi keyingi davr shoirlari tomonidan ham ma'qul topildi. Mazkur shaklda so'nggi bayt – ikki satrdagi qofiya ham mustaqil bo'lib, bu xulosa ma'nolari uchun ancha erkinlik beradi. Shayxzoda, Yusuf Shomansur, Mahkam Mahmud tomonidan Shekspir sonetlarining tarjima qilinishi O'zbekistonda ingliz dramaturgiyasi dahosining she'riy merosini yanada kengroq tasavvur qilishga, bu sonetlarning ma'nolaridan estetik zavqlanishga imkon berdi.

She'riyatning murakkab janri – sonetga, shunda ham klassik sonetga qo'l urgan O'roz Haydar uning o'ziga xos poetik qoidalarni yaxshi



o‘zlashtirgan. Dastlabki sonetlaridanoq ikkita katren (to‘rtlik) hamda ikkita terset (uchlik)da mazmun va mavzuning rivojlantirilishi, g‘oyaviy-kompozitsion tuzishlar borasida yutuqlarga erishib ilmiy jamoatchilik e‘tiborini qozongan. Shoirning yangi klassik yo‘nalishdagi sonetlari ham teran, falsafiy fikr va tuyg‘ularga boyligi, she‘riy hayajon va ehtiroslar, lirik qahramonning olam va inson haqidagi ziddiyatli o‘ylari bilan o‘quvchiga ma‘rifat, estetik zavq beradi. Shoirning o‘ziga xos uslubi sonetlari mavzusiga ishora qiluvchi sarlavhalar qo‘yishida ham ko‘rinadi: ”Ibodot”, ”Tushdan keyingi o‘y”, ”Bayron”, ”Abdulla Qodiriy”, ”Cho‘lpon”, ”Lermontov”, ”Marina Svetayeva” kabilar.

O‘roz Haydar ”Ibodot” sonetida yozadi:

G‘oyib bo‘lsam Iskandarday g‘oyib bo‘lay,  
Tutma menga zarbof to‘n yo juldur kiyim.  
Bu dunyong-ku, rastangdagi ko‘hna buyum,  
Qulashimni istasang gar, tog‘day qulay.

Bu so‘zlar Haq taologa munojotida Farididdin Attor, Rumiyning badiiy olamidani, Mashrab jununidan kelgan isyon iltijoga aylanadi. Baytlar a-b-b-a shaklida qofiyalangan. Sonetda faqat muallifga ayon, biroq o‘quvchiga tushunarsiz, paradoksal fikrlar ham bordek tuyuladi. Jumladan, sonetning ikkinchi katren va birinchi tersetida ”Otilmas tosh qanotimni sindirsin jim, Chaqmoqlarda qoldirayin nursiz umrim”, ”Jaranglasin Vaqt tulporin moviy yoli” satrlari ma‘nosini o‘quvchi qiynalib tushunsa-da, bular zamirida lirik qahramon qalbidagi hayotsevarlik, davrga hamnafaslik, insondagi mas‘uliyat tuyg‘ularini turli ishoralar orqali jarangdor va mazmundor ifodalash mavjud.

Sonet ustalari: Petrarka, Shekspir sonetlari, asosan, muhabbat mavzusida edi. Ingliz shoirlari Bayron, Kolrij va boshqalar sonet doirasini kengaytirdilar. Masalan, Bayron ”Shiylon tutquni” poemasi avvalida milliy ozodlik g‘oyasiga va jenevalik jafokash qahramon Fransua Bonivar sharafiga sonet bag‘ishlaydi. Demak, ma‘lum ma‘noda avvalgi vaqtlarda sonet bag‘ishlov vazifasini ham bajargan. Ma‘lumki, donishmand shoir Petrarka

barcha sonetlarini sevgilisi Lauraning ideal go‘zalligini kuylashga bag‘ishlagan, ishqiy she‘riyat ustasi sifatida shuhrat qozongan. Shekspir ham o‘z sonetlarida bir xonim va bir yigitning maqtovi emas, umuman, tangri taolo insonga ato etgan barkamol go‘zallikni asrlar osha saqlab qolishning iloji yo‘qligi haqidagi qayg‘urish mavjud edi. Shoir ruhi bu go‘zallikni faqat she‘riyatgina abadiy va mangu saqlay olishini aytadi. Petrarka va Shekspir sonetlarida soddalik, ravonlik bor, murakkab so‘z o‘yinlari, tizginsiz fantaziyalar yo‘q.

O‘zbek adabiyotidagi Usmon Nosir, Rauf Parfi, Abdulla Sher, Faxriyor sonetlari ham jonli va ravon yozilgan. O‘roz Haydar esa sonetlar kitobining sarlavhasidan boshlab tizginsiz fantaziyalar olamiga beriladi. Uning sonetlarida falak favvoraday otiladi, otilmas tosh lirik qahramoning qanotini sindiradi, umrini chaqmoqlarda qoldiradi, o‘z niholini o‘zi chopib, o‘zidan o‘zini xalok etadi. Azroyil devoriga mehrini sochadi. Shoirning bir sonetida: ”mag‘rur bo‘lma, bu devorga sajda qil”, - deb buyuradi.

Shoirning ”Bayron” sonetida ingliz shoirining zolimlarni abadiy la‘natlovchi, grek xalqining milliy ozodlik kurashida jon fido qilgan qiyofasi bir qadar ochib beriladi. Mazkur sonet boshdan-oyoq muallifning fantastik fikr-xayollari hosilasidir:

Ildizin uzmakka chiranur daraxt,

Daryo tili tugik, termilar karaxt.

Alvido, yalovi so‘nayotgan quyosh.

Bu misralar o‘z vatani – Angliyani tark etgan shoir taqdiriga, ingliz she‘riyatining quyoshi, Belinskiy ta‘rifi bilan aytganda, XIX asr Prometeyning taqdiriga tabiatning achinishi emasmi?

Muallifning ”Bir ayol olisga boqar zoru zor” deb boshlanuvchi sonetini badiiy va g‘oyaviy, shakl va mazmun mutanosibligi jihatidan mukammal asar deyish mumkin. Undagi tasvirda inson qalbining eng nozik kechinmalari – quvonch va qayg‘ular, armon va umidlar, umr va hayot manzaralari chizib berilgan. To‘plamga so‘zboshi yozgan taniqli shoir va sonetshunos Abdulla

Sher ham ushbu sonetdagi insondagi besh sezgi bilan idrok etiladigan odamiy va olamiy moddiy narsalar: ayol, yor, o'g'lon, qiz, Zuhro, diyor, diyor, ona, ota, tog', yulduz kabilarning ifodani anglatishdagi muhim o'rnini qayd etadi. Darhaqiqat, shoir istiora va o'xshashlarga boy go'zal tashbehlarida, ramziy obrazlarda o'quvchi inson ruhiyatidagi o'ziga xos dunyo ichiga olib kiradi:

Kengliklar silkinib, titrab yig'lar soy,  
Qizaloq kaftidan to'kilar tuproq,  
Oppoq o'tov bo'lib ko'rinadi Oy...

Inson ruhiyatida kechadigan ana shunday ma'yus manzaralar, botiniy holatlar, koinotning bir zarrasi bo'lgan ona zamindagi tabiat jilvalari "Go'zal oqshom" deb boshlanuvchi sonetida ham kitobxon kechinmasiga aylana boradi:

Oppoq somon yo'li – onam allasi,  
Ulkan koinotning mangu yallasi,  
Asta oq o'tovin tikadi oydan.

Ziyrak o'quvchi kitob sarlavhasi "Falak favvorasi" deb atalishiga e'tibor berishi shubhasiz. Albatta, u dastavval tepaga otilib turadigan favvorasini tasvirlamoqda. Sonetlardagi "Ajral charxi ipin yigirar ko'lda", "Osmonni qog'ozday yoqdim benigun", "Go'yo oyni ko'kka qo'yganday ilib", "Yulduzlar boshida sayraydi yohu", "Falakning yuzida chimmat – qora dog", "Falak cholg'uchisi g'am kuyida mast", "Onam allasida ko'kning nafasi", "Zamin ko'z yoshimdan seskandi-ku jim", "Ko'zimga osmon ham qiladir torlik", "Yulduzlar –qorachiq so'qir ko'zdagi", "Ey ko'hna koinot – gumbazi dahr" kabi misralarda lirik qahramonning ongu shuuridagi kechayotgan ruhiy holatlar, hayotda bo'layotgan voqealarga munosabat, o'z taqdiridan voqif etuvchi insonning dardli qalbidagi turfa ohanglar, majoz – metaforalar bilan bezangan o'xshatishlar, modern tasviriga xos fikrlash tarzi kitob sarlavhasining mazmun-mohiyatini anglatib turibdi.

To‘plamdagi sonetlar guldastasi esa O‘roz Haydarning janrning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirish borasidagi izlanishlarni ko‘rsatadi. Ma’lumki, jahon she’riyati tajribasida sonetlar turkumini yaratishda uning o‘n beshta she’rdan tashkil topgan shakli barqarorlashgan bo‘lib, bunday namunalar o‘zbek shoirlaridan Barot Boyqobilov ijodida uchraydi.

O‘roz Haydarning mazkur to‘plamida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Lermontov, Marina Svetayeva haqidagi sonetlar janr guldastasiga misol bo‘la oladi. Shoir Abdulla Qodiriyning vatan, millat, xalq ozodligi yo‘lida ko‘rsatgan jasurligi, sabot-matonati, orzu-hasratlari haqida olti sonetdan iborat guldasta tuzgan. Bu sonetlarning har biri mustaqil va tugal poetik g‘oyani ifodalaydi. Poetik timsol, g‘oyaviy aloqadorlik, lirik qahramon talqini nuqtai nazaridan ”Cho‘lpon” sarlavhali sonet ham yuqoridagi sonetga hamohang. E’tibor qilaylik. ”Abdulla Qodiriy” nomli guldastaning birinchi soneti shunday boshlanadi:

Turkiston singraydir olov qa’rida,  
Har yonga tilanib ochar kaftini.  
Yengsizlik tavqidan yo‘qsilning to‘ni,  
Tikanlar tortadi yirtiq baridan.

Shoir Cho‘lponga bag‘ishlangan birinchi sonetida shunday deydi:

Ey ona Turkiston – Haqning darboni,  
Darbozang kalitin tutqazding kimga?  
Qo‘l ochding, yo‘l ochding, nechun O‘limga,  
Karvoning adashgan, qani sarboning?

Sonetning boshlanishi tabiiy ravishda ”Buzilgan o‘lkaga” sher’idagi tasvirni eslatadi. Keyingi bandeda shoir yurt beklari qo‘rqib xumga, qumga berkinganini aytadi. Biroq kitobxonga bu so‘zlar qizil imperiya bosqinchilariga qarshi so‘nggi nafasgacha kurashgan Ibrohimbek, Madaminbek, Jabborbek, Shermuhammadbekning xotirasini kamsitishdek tuyuladi. Qizil imperiya bosqiniga qarshi yurt beklari xumga ham, qumga ham berkinganlari yo‘q. Lekin ular xalqni birlashtirolmagani chin. Mag‘lubiyatning

har qanday vaziyatda obyektiv sabablari mavjud. Biz nega yengildik? O‘roz Haydar sonetning biirnchi uchligida: ”Chaqmog‘i chaqilmas, to‘ngan qaldiraq, Qo‘rquvdan elboshin tutur qaldiraq”, – deb yozadi. Bu so‘zlar o‘zbeklarni bosqinchilarga tutib bergan. Shoirning fikricha, yurt sarbonlari shunday bo‘lgach, ”Go‘daklar ko‘zida tosh qotgan ta’na, Yo‘qsillik arkidan panoh axtarib, O‘liklar uyidan so‘rar boshpana”. Bu she‘r siyosiy o‘tkir muammolar, mavzular ham sonet uchun begona emasligini ko‘rsatadi. Ammo sonet ”Cho‘lpon” deb atalsa-da, milliy istiqlolchi daho shoirimizning jasur qiyofasi unga sig‘may qolgan. Buni tushungan shoir yana besh sonetni Cho‘lpon mavzusiga bag‘ishlangan turkum-guldasta yaratishda davom etadi. Ikkinchi sonetda: ”har yonda buzg‘unlik, yana to‘kilish’, – deya yurtdagi zo‘ravonlik manzarasini chizarkan, uchinchi sonetda Cho‘lpon mavzusi chuqurlasha boradi, istiqlolchi shoirning og‘ir qismati tasvirlanadi:

Do‘zax o‘zingdiansan, jannat ham o‘zing,  
Dunyo –arosatniing bo‘m-bo‘sh kulbasi...  
Tundan nur so‘raydi ”quyosh o‘lkasi”,  
Hayhot, o‘z yurtingga sig‘mading o‘zing!

Bu yerda dunyo butun dunyo emas, yovlar – qizil imperiya tomonidan bosib olingan Turkistonni, ”Har o‘tgan karvon” kelib-ketuvchi turli istilochilarning ramziy tasviridir.

Shoir to‘rtinchi sonetda bu qayg‘uli holatlar tasvirini yanada kuchaytiradi, aniqrog‘i, xalqimizning o‘sha davr hayotidagi haqiqatlar mohiyatiga chuqur kirib boradi. Sonetning keyingi satrlari (tersetlar – uchliklarda) yolg‘onlar, zo‘ravonliklar, terror, qatag‘onlar oqibatlari ko‘rsatiladi.

Beshinchi sonetda ma‘no yanada chuqurlashtirilgan. ”Bir jinning yetagida karvoni, O‘z elinda muhojirdir sarboni. Surnay chalib kecha-kunduz morini O‘ynatmakdan uning boshqa ishi yo‘q” kabi satrlarda ”Qo‘l ostimizdagi barcha xalqlarni baxtli qilamiz! – deb aldab, aksincha, o‘z tobeligidagi barcha xalqlarning eng yetuk, eng dono ziyolilarini qirg‘in qilgan, xalq dushmani

sifatida otib o'ldirgan sobiq sho'ro rahbarining sehrigar va jodugar qiyofasi gavdalandi.

Bizningcha, oltinchi sonetida istiqlol kuychisining mustaqillik ne'matidan bahramand bo'lib: "sen sari ayturman, chopib omadim", - deya ruhan bugungi kunda biz bilan hamnafasligini tasvirlamoqchi bo'lsa-da, fikrlar poyoniga yetmay qolgandek. Umuman olganda, shoir buyuk istiqlol kuychisi Cho'lpon haqidagi sonetlar sonini bir-ikkitaga oshirganida guldasta yanada mukammal bo'lardi.

O'roz Haydar rus she'riyati daholaridan Lermontovga ham sonet bag'ishlaydi. Bu sonetlarda buyuk shoirning zolimu kiborlarga nafrati, xalqning erksizligidan chekkan iztiroblari, jo'shqin va yorqin shaxsiyati yaxshi ochib berilgan. Marina Svetayeva haqidagi sonetlar guldastasida ham siyonkor shoiraning nurli ruhiy olami, iztirobli izlanishlari o'quvchi qalbini hayajonga soladi.

O'roz Haydarning barcha sonetlarini ma'no salmog'i va badiiy yorqinligi, teran falsafiy fikrlarga boyligi, emotsional-estetik kuchi bilan istiqlol davri o'zbek she'riyatining go'zal namunalari deb ayta olamiz.

O'roz Haydarning «Falak favvorasi» kitobida sonetga bo'lgan ulkan muhabbatni ko'rish mumkin. Zero, inson muhabbatga osongina erishmaydi. O'roz Haydar ham dastlab ko'p qatori sonetni 14 qatorlik she'r deb tushungan edi. Lekin keyinchalik o'zi tanlagan janrga ulkan muhabbat, unga barcha qiyinchiliklarni yengib o'tish va haqiqiy sonet yaratish imkonini berdi.

O'roz Haydar o'ziga xos uslubga ega, bu hamma shoirga ham nasib etavermaydigan ijodiy omad, ilohiy ne'mat. To'g'ri, bu uslub oppoq, yarqiroq emas. Unda qora rang ustuvor. U quyoshdan ko'ra tundagi osmonni, oq yulduzlarning yorqin ko'rinishi uchun xizmat qiladigan qorong'ilikni eslatadi. Unda qora olam oq fikrning yanada yarqirab ko'rinishi uchun xizmat qiladi. Shu bois O'roz Haydarning she'rlaridagi, xususan, sonetlaridagi olamu odam tasvirini tushkunlikka yo'yish tarzida qabul qilish

kerak emas. Ularda osmonu yerning qora rangga bo‘yalgan iztiroblari inson qalbining oqligini, uning ulug‘vorligini ta’kidlab turadi, xolos. Ayni paytda bu uslubda biz hozir modernizm deb ataydigan badiiy fikrlash tarzini ham ko‘rish mumkin. Kitobning nomiga ko‘z tashlashimiz bilanoq: falakda favvora bo‘ladimi? Falak favvorasi nima —quyoshmi, yulduzlarmi? Favvora yuqoridan pastga qarab otiladimi yoki pastdan yuqorigami? degan savollar tug‘iladi, tushunmagandek bo‘lamiz. Lekin mashhur Boqchasaroy favvorasi — ko‘z yosh chashmasi yuqoridan pastga qarab tomadi-ku! «Yulduzlar —qorachiq so‘qir ko‘zdagi» deydi O‘roz Haydar. Shunday deyish mumkinmi? Bundan, deyarli, bir yarim ming yillar avval xitoylik shoirlar Van Vey va Su Shilar «sukunat gumburlaydi», yapon shoirlari Myoye va Saygyolar «oy nuri jaranglaydi» degan edilar. Demak, shunday deyish mumkin ekan. Shu sababli darhol tushunarli bo‘lmagan, kishini o‘ylashga, izlashga, mushohadaga chaqiradigan, bizni bir oz «qiynaydigan», ko‘zimiz o‘rganmagan bandlar, misralar va timsollarga istehzo bilan qarashimiz insofdan emas. Zero, O‘roz Haydarning uslubidagi bu «qiynoqlar» oxir-oqibat bizni lazzatga, estetik huzurga olib kelishi, shubhasiz. Uning sonetlaridagi ma’yus bir quvonch, zavqli iztirob qalbingizning eng nozik torlarini chertib o‘tadi. Mana bu sonetga bir e’tibor qiling, u goh bulutning ortiga kirib, harirga o‘ralgan, goh bulutni o‘z ortidan ergashtirib yaraqlayotgan to‘lin oyning jamoliga o‘xshaydi:

Bir ayol olisga boqar zoru zor,

Ko‘zidan jim tomar quyoshning izi.

Ko‘ringay tog’ emas, bir toshning yuzi,

Ko‘klam shabadasi zavq bermas zinhor.

U baxtdan yarimmas, suygan yori bor,

Bor shunqor o‘gloni, bor dilbar qizi.

Zuhrodan munavvar tole yulduzi,  
Ammo tog' ortida chorlar bir diyor.  
Ba'zan uyqusida to'lg'onadi jim,  
Tushida onasin ro'moli g'ijim,  
Otasin chalg'isi uchar —oqcharloq,  
Kengliklar silkinib titrab yig'lar soy.  
Qizaloq kaftidan to'kilar tuproq.  
Oppoq o'tov bo'lib ko'rinadi OY

Agar e'tibor bersangiz, bu sonetda ifoda vositasi bo'lib xizmat qiladigan xatti-harakatni anglatuvchi so'zlardan ko'ra aniq nomlar ko'p uchraydi. Ular besh sezgi bilan idrok etiladigan jonli va jonsiz, odamiy va olamiy moddiy narsalarning nomlari: ayol, ko'z, quyosh, iz, tog', tosh, yor, o'g'il, qiz, yulduz, Zuhro, diyor, ona, ro'mol, ota, chalg'i, oqcharloq, soy, qizaloq, kaft, tuproq, o'tov, Oy. O'n to'rt satrli she'rda shuncha moddiy narsa! Lekin, ajabo, ular bo'rtib ko'zga tashlansalar ham, siz biror bir o'rinda go'zallikning ichidan turtib chiqqan xunuklikni, nazokatga putur yetkazgan qo'pollikni, moddiyatga xos dag'allikni sezmaysiz — xo'rsiniqning tiniq ohangi buzilmaydi, tashqi narsalar sizning ichki hissiyotingizga aylanib ketadi. o'oyatda murakkab bo'lgan bu oddiylik qanday ro'y berdi? Buni O'roz Haydar ham, men ham, siz ham aytib berolmaymiz. U —iste'dod deb atalgan ilohiy qudratning, ilhom deb atalgan mo'jizaning ishi.

Endi sonetdagi «ko'z o'rganmagan» tashbehlarga —istiora va o'xshatishlarga nazar soling: tomayotgan ko'z yosh — quyoshning izi; sermalgan chalg'i — uchayotgan oqcharloq; kengliklar yelkalari titrab yig'layotgan ayol bilan birga silkinadi; Oy qizaloqqa aylangan ayolning bolaligi



o'tgan oq o'tov... Ilg'asangiz, narsalar emas, ularning mohiyatini anglatgan tashbihlar manzara yaratayapti.

Ayni paytda ushbu qalb manzarasida nafaqat murakkab shakl ustidan erishilgan shoirona g'alabani, balki sonet falsafasi qonunining to'liq bajarilganini —bandlarning ichki dialektik aloqadorligi asosida vujudga kelgan mazmun yaxlitligini ham ko'ramiz. Birinchi katren — tezis: qayg'uni ifodalaydi (olisga zor-zor boqqan ayol sog'inchi; uning ko'zyoshi ichiga joylangan quyosh tomchilab yerga tushyapti; tog'— ulug'vorligini yo'qotgan ulkan toshdevor; ko'klam shabadasining kuz izg'irinidan farqi yo'q). Ikkinchi katren — aksiltezis: quvonchni ifodalaydi (ayolning baxti butun, suygan yori, shunqor o'g'li, dilbar qizi, munavvar tole yulduzi, tog' ortida ota yurti bor). Tersetlar — sintez: ularda qayg'u bilan quvonchning dialektik uyg'unligi aks etgan (ayolning tushida onasi sog'inchdan parishonxotir, qizim baxtlimikan deb ko'ngli g'ash, shundan g'ijimlangan ro'moliga e'tibor ham bermaydi; otasi esa — erkak kishi, pahlavon, sog'inchini mehnat bilan bosadi: chalg'isini har sermaganida uning ko'kka ko'tarilgan tig'i yaltirab, xuddi oqcharloq uchayotgandek taassurot uyg'otadi; baxtli ayolni sog'inch yig'latadi, qizaloqligi kechgan joylar esiga tushadi — Oy uning oppoq o'tovi: go'zal va olis...).

Shunday qilib, sintezda ayol zotining ma'yusona baxtdan iborat abadiy o'zgarmas qismati aks etadi; quyosh bilan boshlangan sonet oy bilan yakun topadi; sonet deb atalgan shaffof tomchida inson ruhining butun bir dunyosini ko'rishimiz mumkin. Bu esa O'roz Haydarning badiiy mahoratini ko'rsatadi.

## **2. 2. O‘roz Haydar she‘riyatida badiiy-tasviriy vositalar.**

Qadimiy tarixga ega bo‘lgan adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she‘r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. U yoki bu san‘atkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e‘tibot qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she‘riy san‘atlardan foydalanish mahorati hamma davrlarda badiiy san‘atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

She‘riy san‘atlar badiiy asarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyroq, ta‘sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Biror ijodkor ijodiga, u yoki bu asarga baho berilar ekan, shoir ifodalayotgan g‘oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma‘rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she‘riy san‘atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida e‘tibot qilingan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she‘riy san‘atlar shoir badiiy iqtidorini namoyish qilish emas, balki ijodkor badiiy tafakkuri dahosining ko‘lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni jilolantirish san‘atkorligi ifodasi bo‘lib kelgan.

O‘roz Haydar shoir sifatida she‘riy san‘atlardan badiiylikka erishishda, tasvirning real va jonli bo‘lishini ta‘minlashda ustalik bilan keng foydalandi. U inson qalbidagi hayajon va quvonchlari, iztirob va orzularini butun ko‘lami va nozikliklari bilan his etadi, ayniqsa, mo‘jaz badiiy lavhalar, jonli sanalar yaratishda shoir katta mahorat namoyish qiladi. Umuman olganda, she‘rda g‘oyaviy butunlikka erishishni O‘roz Haydar badiiylikning asosiy shartlaridan biri deb hisoblagan. O‘roz Haydar she‘rlari noyob tashbehlarga boy. Uning she‘rlarida o‘zbekona lutf hukmron. Adabiy

tilimizda kam qo‘llaniladigan so‘zlarimizni faol istilohga olib kirdi. Buni she‘rlari misolida ko‘rib chiqamiz. Misol:

Chapak chalur bag‘rimda ochun,  
Ko‘zlarimda yum-yum yig‘lar qor.  
Sig‘dirolmay ichga quvonchin,  
Huv soylarda hayqirar Bahor.

Entiktirar bir shirin titroq,  
Sakrab-sakrab hayqirgum kelar.  
O‘t-o‘landay chirmashib biroq  
Oyog‘imga o‘ralur yellar.

Hansiraydi hadsiz kengliklar,  
Bag‘rida-chi oq tuman suzar.  
Tamshanadi go‘dak kurtaklar,  
Novdalarning uyqusin buzar.

(“Bahor sog‘inchi” she‘ri)

Mazkur she‘r bahor haqida yozilgan bo‘lib, unda she‘riy san‘atlar ko‘p qo‘llangan. “*Chapak chalur bag‘rinda ochun*” misrasida dunyo jonlantirilgan. Ya‘ni, **tashxis** san‘ati qo‘llangan. Dunyo insonga o‘xshab chapak chalmoqda. Ikkinchi misrada tabiat hodisasi bo‘lgan qor jonlantirilmoqda, ya‘ni insonga o‘xshab harakatlantirigan. Insonga xos bo‘lgan yig‘lash holati qorga ko‘chirilgan. To‘rtinchi misrada esa quvonchini ichiga sig‘dirolmay yil fasllaridan biri bo‘lgan Bahor “*hayqiradi*”. She‘rning ikkinchi bandida tabiat hodisasi bo‘lgan “*yel*” lirik qahramonning oyoqlariga “*o‘raladi*”. She‘rning uchinchi bandida manzara yanada quyuqlashadi: “*Hansiraydi hadsiz kengliklar, Bag‘rida-chi oq tuman suzar. Tamshanadi go‘dak kurtaklar, Novdalarning uyqusin buzar*”. Ko‘rganimizdek, O‘roz Haydar mahoratli shoir sifatida tabiat hodisalarini “jonlantirgan”. Bu bilan she‘rning badiiy bo‘yoqdorligini ta‘minlagan.

“Kuz ertagi” she’rida shoir intoq san’atidan foydalangan:

Yolg’onmi, gapirib qo’yishdan cho‘chib  
Tik qotgan askarday jimdir minorlar.  
Yashil kimxobini o‘g’irlatibmi,  
Qartayib, quriqshab qolgan chinorlar.

To‘tiqush shodligi kezgan g’oshada  
Ilon po‘sti kabi titraydi mezon.  
Achchiq bo‘y taralar so‘ngan gullardan,  
Ariqlar tilida o‘lgandir azon.

G’udranar esishdan toliqqan yellar,  
Yo‘liga hech narsa tikmagandek ko‘z.  
Sarg’aygan bog’larda kezinib uzoq  
Kasalmand chol kabi harsillaydi Kuz.

“*G’udranish*” odamga xos xususiyat. Lekin shoir bu holni tabiat hodisasi bo‘lgan yelga nisbatan ishlatgan. Kuzning “*harsillashi*” esa jonlantirish san’atiga misol bo‘ladi. Shoir she’riy san’atlarni o‘z o‘rnida qo‘llaganligi bois, tabiat ko‘z o‘ngimizda jonlangandek go‘yo!

“Ey, gul” nomli she’rida istiora san’ati qo‘llangan:

Ey, gul, ko‘ngil suviga aylan,  
Ey, gul, cho‘mil otashkadada.  
Asbrim tufroq etdi bul gulshan,  
Qanoatda ekdim bir sada.

Bu parchada “*Gul*” so‘zi istioradir. Ma’lumki, istiora arabcha so‘z bo‘lib, asarda u haqiqiy ma’noda ishlatilmaydi, balki ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Ko‘pincha bu ikki ma’no o‘zaro o‘xshashlikka asoslanadi. Bu o‘rinda shoir go‘zal mahbubaga murojaat qilmoqda.

Quyidagi she'ning nomlanishi "Savol va javob" deb nomlangan va bu she'rda ham *savol-javob* san'atidan, ham *talmeh*, ham *kinoya* san'atidan foydalanilgan:

O'g'il:

–Nega Ibn Sino quvg'inda bo'lgan,  
Surgunda qon yutgan Navoiy bobo?  
Xudbinlar, malaylar omonda qolib,  
Qatl etilgandir ajab, ne daho?

Ota:

–Ular teng saqlagay yer posangisin,  
Yer bo'ylab sochish-chun aylashgan ta'qib.  
Daholar bir joyda to'plansa agar,  
Yer bir tomonga ketardi og'ib.

She'ning birinchi bandning birinchi misrasida mutafakkir olim Ibn Sinoning tarixiga nazar tashlash talmeh san'ati, ikkinchi misrada Navoiy tarixiga nazar tashlash talmeh san'ati, otaning o'g'ilning savollariga bergan javobida esa kinoya san'ati qo'llangan.

O'roz Haydar she'rlarini o'qiganimizda g'ayriodatiy so'z va birikmalarga duch kelamiz. Masalan, *qora yomg'ir*, *shaddod sabo*, *xayol qizi*, *osmon ravog'i*, *sovuq tabassum*, *yaltiraydi chalg'i tovushi*, *yig'layotgan she'r*, *qon qusar dengiz kabilar*; *oqshom yalmog'izday qo'rqinchli*, *mulkin qimorga boy bergan kimsadek*, *o'tda kuygan qushdek*, *ayoli xo'rlagan yuvosh erkakday*, *sukunat shiviri uchar shu'laday*, *onasin sog'ingan boladay*, *zimistonda yoqqan yomg'irday*, *o'g'li tashlab ketgan chol kabi ma'yus* kabi noyob o'xshatishlarga duch kelamiz.

Shoirning betakror tashbehlari, noodatiy birikmalari she'rlarining badiiyligini oshirgan, ta'sirchanligini ta'minlagan.

## XULOSA

XX asrning 80-yil boshlari ijod sahniga kirib kelgan avlod (Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Abdulla Sher, Xurshid Davron, Azim Suyun, Tohir Qahhor va h.k) adabiyotimiz xazinasini boyituvchi, komil shaxs tarbiyasi uchun xizmat qiluvchi iste'dodli asarlari bilan badiiy madaniyatimiz tarixidan nufuzli o'rin egalladi. Qashqadaryo badiiy tafakkurining taniqli namoyandasi O'roz Haydar ijodi shular jumlasidandir.

Davr o'z ijodkorlari oldiga hamisha muhim muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Shular orasida ma'naviyat ekologiyasi eng muhim, kechiktirib bo'lmas vazifalardan biridir. Bu, ruhan va fikran komil shaxsni kamol toptirish, shakllantirish masalasidir. Shoirning lirik qahramoni mana shu mas'uliyatni ado etish uchun bor imkoniyatlarini sarflaydi.

O'roz Haydarning poetik obrazlari fikrni timsol darajasiga ko'taradi. Bunda hayotiy faktlar falsafiy mushohadalar yuritish uchun keng imkoniyat beradi.

Shoir she'riyatida ilgari surilgan bosh ma'noga ko'ra jamiyat ham, inson ham komillik maqomiga yetishi kerak. Lirik qahramon zamondoshlari ma'naviyatidan mana shu komillik belgilarini axtaradi. Jamiyat oldidagi mas'uliyatini yuksak darajada bajara olmayotgandek o'z-o'zidan qoniqmaslik tuyg'ulariga, mulohazalariga berilib, mutafakkirona badiiy tadqiqot olib boradi. O'roz Haydarning "Aksioma", "Oq soya", "Vaqt iztirobi", "Musiqor", "Ruhafzo" kabi she'riy turkumlari ana shunday o'ziga xos izlanishlar samarasidir.

O'roz Haydarning o'ziga xos uslubi, ijodiy manerasi uni boshqa shoirlardan ajratib turadi. Uning she'riyatida milliy o'ziga xoslik, qashqadaryocha soddalik, do'lvorlik bo'rtib turadi.

O'roz Haydar ijodi xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shoirning badiiy iste'dodi uning ruhiy olamidagi qudratli kuchlar – xalqchillik, insonparvarlik, adolat va haqiqatga xizmat qilish istagi, vatanparvarlik, millatsevarlik ideallariga sadoqati va fidoyiligida yaqqol ko'rinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000. .
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Адабиётимизнинг ярим асри. 1-китоб. Адабий-танқидий мақолалар. – T.: Бадиий адабиёт, 1967.
4. Адабиётимизнинг ярим асри. 2-китоб. Адабий-танқидий мақолалар. – T.: Бадиий адабиёт, 1975.
5. Normatov U. Talant tarbiyasi. Adabiy o'ylar. – T., 1980.
6. Normatov U. Yetuklik. Adabiy maqolalar. - T.: O'zbekiston, 1982.
7. Расулов Т. Бадиий асар қанотлари (образ, образлилик, услуб). – T.: Адабиёт ва санъат, 1977.
8. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – T.: Фан, 1979.
9. Раҳимжонов Н. Шоир ва давр. – T.: Адабиёт ва санъат, 1983.
10. Раҳимжонов Н. Фалсафий лирика. – T.: Фан, 1984.
11. Rahimjonov N. Ilmiy tafakkur jilolari. – T.: Fan, 1991.
12. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. Адабий ўйлар. – T.: Адабиёт ва санъат, 1983.
13. Шарафиддинов О. Йиллар ва йўллар / Адабиётимизнинг ярим асри. – T., 1967. 1-китоб.
14. Шарафиддинов О. Ижоднинг катта йўлида / Истеъдод жилolari. – T., 1976.
15. Ғафуров И. Ям-яшил дарахт. Адабий-танқидий мақолалар. – T.: Адабиёт ва санъат, 1976.
16. Ғафуров И. Лириканинг юраги. Адабий ўйлар. – Тошкент, 1982.
17. Ғафуров И. Юрак – аланга: (Адабий-танқидий мақолалар.) – T.: Ёш гвардия, 1980.
18. G'afurov I. SHE`riyat – izlanish demak. Adabiy-tanqidiy ocherk. – T.: Adabiyot va san`at, 1984.
19. Xudoyberdiyeva H. Bu kunlarga yetganlar bor. T., 1993.
20. Sultonova M. Baxtli zamon kuychilari. T., 1984.

21. Zulfiya. Tuyg'un o'ylar, toshqin hislar kuychisi. T., 1973.
22. O'roz Haydar. Ruhafzo. Toshkent, Zarqalam nashriyoti, 2006.
23. O'roz Haydar. Kechikkan fasl. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik Kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2010.
24. O'roz Haydar. 101 sonet. Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2010.
25. O'roz Haydar. Musiqor. Toshkent, 2012
26. O'roz Haydar. Falak favvorasi. Sonetlar. "Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik Kompaniyasi bosh tahririyati . Toshkent, 2012.
27. O'roz Haydar. Tanlangan asarlar, Toshkent, 2014.
28. Internet ma'lumotlari.
29. [www.literatura.uz](http://www.literatura.uz).
30. [www.http// Literature.uz](http://Literature.uz)
31. [www.http// Google.O'zbek adabiyoti.uz](http://Google.O'zbek adabiyoti.uz)



